

Ushbu kitobga bolajonlar uchun turli mavzulardagi ertaklar kiritildi. Ularda to'g'rilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi insoniy va ijobiy fazilatlar ulug'lanadi. Qiziq voqea va qahramonlarning o'zaro suhbat muloqoti, sarguzashtlari orqali ezgulikning g'alabasi, yomonlikning zavol topishi yosh kitobxonlarga oson va ravon usullarda uqtiriladi.

*Muharrir:*

**DILSHOD RAJAB,**  
filologiya fanlari nomzodi

*Texnik muharrir:*

**B.KOMILOV**

*Musahhiha:*

**Z.MO'MINOVA**

Bosishga ruxsat etildi: 14.04.06 y  
Bosmaxonaga topshirildi: 04.04.06 y  
Bichimi: 84x108 1/32. Adadi: 300 ta.  
Buyurtma № 12. Hajmi: 4 b.t.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Zarqalam" nashriyoti,  
Toshkent shahri, Navoiy k. 30-uy.

"Ishquvvat" MChJ bosmaxonasida tayyorlandi.  
Toshkent S. ota ko'chasi 7 a uy

## ABDURAHMON POLVON

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qarg'a qaqimchi, chumchuq chaqimchi, bo'ri bakovul, tulki yasovul, toshbaqa tarozibonu qurbaqa undan qarzdor ekan. Qadim zamonlarda olis Buxoro degan tomonlarda bir cholu kampir yashagan ekan.

Ularning farzandlari yo'q ekan. Ular ertayu kech Xudodan farzand so'rab duo qilisharkan. Chol duradgorlik qilarkan. Shu kasbi orqali ro'zg'or tebratarkan. Kampir esa uy ishlari biland bo'lar, bo'sh vaqtlaridai p yigirib, bolalar uchun bir-biridan xushbichim, mo'jazgina kiyimlar to'qirkan. Ammo ba'zida ushbu kiyimlarga qarab o'zining farzandi yo'qligidan afsuslanib, yig'lab ham olarkan.

Kampir cholining oldiga ovqat olib borarkan, lablarini pichirlatgan ko'yi:

– Oллоhim, bizga ham o'z mulkingdan bir oqil pahlavon o'g'il ato etgin. Uni ko'rib, ko'zimiz quvonsin. Bizning ham hayotimizga quvonchlar bergin, – deya iltijo qilarkan. – Agar bittagina o'g'limiz bo'lganida edi, sizga ovqatni o'zi olib kelib berib, og'Irimni yengil qilardi, – debdi choliga qarata.

– Ko'p g'amga botaverma, kampir. Bizga ham Xudoyimning atagani bordir. Bir kuni biz kutgan ko'zimizning quvonchi keladi. Ohu nolamiz Xudoga yetib boradi. Noumid bo'lmagin, – deya chol kampiriga tasalli beribdi.

Nihoyat, ularning ohu nolalari Yaratganga etib boribdi. Kunu oylar o'tib, chol-kampir o'g'illik bo'lishibdi. Keksayganda topgan farzandlarini quvonch yoshlari bilan kutib olgan ota-ona unga ezgu umidlar bilan pahlavondek yigit bo'lsin deya Abdurahmon polvon deb ism qo'yishibdi. Oyu yillar bir-birini quvib ortda qoldiribdi, necha bahoru necha qishlar o'tibdi. Abdurahmon polvon ham ular kabi tez voyaga etib, kuchli, botir yigit bo'lib ulg'ayibdi.

Ko'p yillardan beri Abdurahmon polvonning yurtiga qarochilar to'dasi hujum qilib, odamlarning uyini talar, mulkini vayron qilar, xotin-qizlarni esa cho'ri qilib olib ketib,

begunoh odamlarning qonini to'kardi. Ularning sardori yengilmas Turg'un nomi bilan tanilgan va insonlarning yuragiga g'ulg'ula solgan qaroqchi edi.

Qaroqchilar shunchalik kuchli ediki, har birining gavdasi devday, qasri shunchalar baland ediki, hatto undan qush uchib o'tolmas edi. Abdurahmon polvon ularning doimiy taloto'pi, talon-tarojini ko'rib ulg'aydi. Hattoki xalqning ham bundan sabr kosasi to'lib, pichoq bo'rib suyakka qadalgan edi. Yosh Abdurahmon bolalikdan ularga qarshi kurashish, xalqini bu zolimlarning qutqusidan ozod etish umidida ulg'aydi. Buning uchun u jang san'atini puxta egalladi, o'z davrining olimlaridan ilm-fan sirlarini chuqur o'rgandi. Barkamol yigit bo'lib voyaga etdi. O'z yurtida unga teng keladigan, Abdurahmon polvonning kuragini yerga tekkizadigan polvon topilmasdi.

Kunlardan bir kun xalq orasida vahima ko'tarildi. Odamlar ini buzilgan qushlar kabi chirqillab, har qayoqqa to'zidi. Xabar topsa, yana qaroqchilar to'dasi hujum qilayotgan ekan. Ojiz xalqning og'ir ahvolda qolgani, eng achinarlisi, Abdurahmon polvonning sevgilisi — suluv Barnoxonning qaroqchilar tomonidan asir qilib olib ketilganligi polvonning qaroqchilarga nisbatan nafrati, g'azabini battar alangalatib yubordi.

G'azab mushtini tukkan polvon otasi oldiga bordi va shunday dedi:

— Otajonim, meni oq yuvib, oq taradingiz. Jismonan kuchli, aqlan barkamol, pahlavon bir farzand qilib ulg'aytirdingiz. Endi men shu kuchimni, qudratimni xalqimning tinchligi, xotirjamligi uchun sarf etay. Yonimga ko'ngilli bahodirlarni olib, qaroqchilarga qarshi jangga otlanay. Menga oq fotiha bering!

— Ey ko'zimning oqu qorasi. Men Xudodan sendek o'g'lon so'ragan edim. Bu yurt senga otang va onangdek aziz. Uni hi-moya qilsang, ota-onangni, yaqinlaringni asragan bo'lasan! Xalqimiz sen kabi bahodirlarni ko'p yillardan beri kutmoqda edi. Yoningga mard yigitlarni olib, qaroqchilarga qarshi maydonga chiq. Tangrim o'zi bergan joningni o'zi omon etsin! Oq yo'l, bolam, — deya otasi ko'zida yosh bilan o'g'lini duo qilibdi.

Abdurahmon polvon yurtining kurash maydonlarida signalgan, mard va jasur, eli uchun jonidan kechishga tayyor

yigitlarini atrofiga yig'ibdi. Ularning o'zi shundoq ham yengilmas qaroqchi Turg'undan alamzada bo'lib, qasos olovi bilan yonardilar. Chunki u sababli kimlar ota-onasidan, kimdir aka-singlisi, yana kimlardir jondek aziz yoridan ayrilgan edilar.

Polvon mardlarga qarata shunday debdi:

— Ey qudratli pahlavonlar! Barchamiz ko'p yillardan beri qaroqchilar zulmidan azob chekib kelmoqdamiz. Ular sababli har bir oilada kemtiklik bor. Uni na molu dunyo, na quvonch bilan to'ldirib bo'ldi. Qaroqchilar begunoh insonlarning qonini to'kib, barchamizning boshimizga uqubatlar solmoqda. Toki ularga qarshi chiqib, kurashib, g'alaba qozonmas ekanmiz, bunday uqubatli kunlar buluti boshimizda to'planib turaveradi. Shunday ekan, keling, barchamiz bir bo'lib, qaroqchilarni tor-mor etaylik.

Uning bu gaplari yigitlarni yanada to'lqinlantirdi. Barchalari bir ovozdan "Kurashamiz! Qaroqchilarga o'lim! Yo hayot yo mamot!" deb hayqirar edilar. Qilichu nayzalarning shaqir-shuquri, sovutlarning gusur-gusuri eshitilar edi.

Shunday qilib, Abdurahmon polvon qaroqchilarga qarshi kurashchilarning sardori bo'lib, o'z otliqlari bilan yo'lga otlanibdi. Ular uzoq yo'l yuribdilar. Yo'l yursa ham mo'l yuribdilar.

Endi gapni qaroqchilardan eshiting.

Tinch o'lkaning ustiga quzg'undek yoprilib, tayyorga ayor bo'lib, birovlarining molini talab, boylik orttirgan, o'zlaricha shodon holda qaytgan qaroqchilar saroylariga yetib kelibdilar.

Ularning qasri metindek mustahkam bo'lib, soqchilar qattiq qo'riqlashar edi. Bu qasrga kirgan odam ularning buyrug'iga bo'ysunishi, aks holda jonidan ayrilar edi. Shu kungacha bu qasrdan biron odam qutulib chiqmagan, qutulib chiqqanlar ham faqat jonsiz holatda chiqardi...

O'lja olingan boylik qaroqchilar boshlig'i tomonidan taqsimlanar ekan, mol-mulk, asir olingan odamlar qaroqchilarning maqomiga qarab bo'linardi.

Asirdagi xotin-qizlar ichida Abdurahmon polvonning sevgan qizi — go'zal Barnoxon ham bor edi. Endigina o'n etti yoshga kirgan bu sahibjamolning yuzida oy porlab, ko'zida yulduz charaqlar edi. Uni bir ko'rishda oshiq bo'lib qolgan

qaroqchilar sardori yengilmas Turg'un shunday deb gap boshladi:

– Ey parivash, isming nima? Sen odam bolasimisan yoki farishta naslidan? Buncha go'zal bo'lmasang. Meni shaydoyi devona etding.

Barnoxon qaroqchilar sardorining yuziga ham boqqisi kelmas, undan nafratlanar edi. Chunki u xalqini talagan, insonlar boshiga kulfat yog'dirgan odamning shundoqqina ro'parasida turar edi.

Qaroqchilar sardorining muloyim ko'ringan tovushi tahdid ohangini olgach, Barnoxon ilojisizlikdan, yonidagi xotin-qizlarning ham ahvolini o'ylagan holda unga istar-istamas javob qildi:

– Ismim Barnoxon. Shuni bilib qo'yki, mening pahlavon bir sevganim bor. U, albatta, meni izlab keladi va o'shanda qilgan barcha ishlaring uchun qattiq pushaymon bo'lasan.

– Ey malakasiymo parivash. Meni pushaymon qildiradigan odam hali bu dunyoga kelmagan. Qolaversa, qasrim og'zida tog'day-tog'day yigitlarim bor. U kelsa ham bu erga seni emas, aksincha, o'z ajalini izlab kelgan bo'ladi, – deya Turg'un qaroqchi qah-qah otib kuldi. Uning qahqahasidan tog'lar larzaga keldi go'yo, yaxshisi uni unut va menga turmushga chiq. Qasrimning mangu malikasiga aylan!

Barnoxon bu johil qaroqchi bilan tortishish axmoqlik ekanini angladi va aql bilan ish ko'rishga qaror qildi. U qaroqchiga shunday deb javob qildi:

– Nima ham qilardim. Taqdirim shu ekan. Agar mard bo'lsang, menga va men bilan birga kelgan qizlarga vaqt ber. Shu vaqt oralig'ida sevgilim meni izlab kelsa keldi, agar kelmasa, taqdirga tan berib, men senga yuragimdan joy beray va shartlaringga rozi bo'lay.

Barnoxon sevgilisi Abdurahmon polvon nima qilib bo'lmasin uni izlab kelishi va johil qaroqchilar qo'lidan ozod qilishiga ishonardi.

Turg'un qaroqchi yoniga odamlarini yig'di va ularga Barnoxonning talabini yetkazdi. Qaroqchilar:

– Sen bizning sardorimizsan. Sen qanday qarorga kelsang, biz ham rozimiz, – deyishdi.

Shu tariqa Barnoxon o'ziga va yonidagi asira qizlarga qirq kun vaqt so'rab, ularning barchasini o'z yoniga chorlab oldi.

Bu vaqtda Abdurahmon polvon bahodir do'stlari bilan sahroyu cho'llar, muzli tog'lar osha tobora qaroqchilar makoni sari ildamlar edilar. Hech kim yashamaydigan bir dashtda kunbotar chog'li pillab yongan chiroq shu'lasiga ko'zlari tushibdi. Ular chiroq shu'lasini tomon yaqinlashibdilar. Borsalar kichik bir kulba. Lekin uning ichidan butun zaminning nurlari taralayotganday edi go'yo. Abdurahmon polvon odob bilan eshikni taqillatdi. Eshikni soqollari ko'ksiga tushgan, frishtasiymo, yuzlaridan nur taralib turgan bir mo'ysafid ochdi. Uni ko'rishi bilan Abdurahmon polvon qo'lini ko'ksiga qo'yib, salom berdi:

– Assalomu alaykum, otajon.

– Vaalaykum assalom, bo'tam, – alik oldi chol.

– Biz yo'lovchilarmiz. Yo'l biroz toliqtirdi. Agar yo'q demasangiz. Bir kecha uyingizda tunasak...

– Men sizlarni kutayotgandim, – dedi chol. Yigitlar hayratdan bir-birlariga tikilib qoldilar.

Pahlavonlar kulbaga qadam qo'ydilar, ulardan biri tashqaridan kichik bir ko'ringan kulbaga sig'armikanmiz deb o'ylagan edi. Mo'ysafid o'sha botirga qarab:

– Bolam, uyimiz tor bo'lsa ham, ko'nglimiz keng. Mchmon – atoyi Xudo, – deb qo'ydi. Botirning bundan yana ham hayrati ortdi.

– Men sizlarning siymoingizni tushimda ko'rdim, bolalarim. Siz g'oyat ezgu ish yo'lida joningizni xatarga qo'yan ko'rinasiz!

– Yaratgan egam sizga ayon etibdi, otajon! Biz Buxoro taraflardanmiz. Xalqimiz ko'p yillardan beri Turg'un qaroqchi jabridan ozor chekmoqda. Elning bundan sabr kosasi to'ldi. Biz esa ulug'larimizning duosini olib unga qarshi kurashga, uni mahv etishga otlandik, – dedi bahodirlar sardori Abdurahmon polvon.

– Maqsadingiz bag'oyat ulug', bo'talarim! Ammo sizlar hali yosh, navqiron yigitlardursiz! Turg'un qaroqchi esa lashkari bulutlar kabi son-sanoqsiz bir maxluq. Bil'aks, sizning

unga jangu jadal bilan bas kelishingiz olovni suv deyishdek gap. Ammo qodiri Xalloq bandasiga aql va u birla dono tadbir qo'llamak iqtidorini berib qo'yibdi.

– Bizga qanday tadbir maslahatini berursiz, otajon! – dedi pahlavonlardan biri ko'zida g'alaba sari ishonch uchquni porlab.

– Siz ularning qoshiga kurashmoqchi bo'lgan dushman emas, go'yoki xizmatiga kirmoqchi bo'lgan, qaroqchilikni istaguvchi yoshlar jamoasi bo'lib borishingiz kerak bo'ladi. Buning uchun esa qaroqchi suratiga kirishingiz lozim. Unutmang: ularning o'z qiyofalari bor. Ular chap qo'llari bilan taomlanishadi, ko'zlari doimo o'lja ilinjida o'ynab turadi, faqat uyat so'zlar, do'q va po'pisa bilan so'zlashadi, yolg'onni xuddi rostdek gapirishadi, qovoqlari uyilgan, ko'zlari olaygan, yuzlari timalgan-chandiq bo'ladi...

– Borgach, ularga nima deyishimiz mumkin? – yana savol tashladi jasurlardan biri.

– Uning qoshiga borganda, ta'zim qilib, o'zingizni uning hunarini o'rganmoqchi kabi ko'rsating va xizmatigingizga oling, deb o'tining. Keyin ular sizni sinovdan o'tkazadilar. Sinovda ularni, albatta, yengishingiz kerak. Shunda xizmatlariga kira olursiz. Aksincha joningizdan ayrilasiz, – deya chol birma-bir nasihat berdi va Abdurahmon polvonga kichik bir ko'zachani uzatdi, – bunda odamni behush qiladigan, og'ir uyquga ketkazadigan suyuqlik bor. Qaroqchilar bazm uyushtirganda, ularning sharoblariga qo'shib berasiz.

Shunday qilib, pahlavonlar nuroniy chol bilan xayrlashib, uning duosini oldilar va yo'lga tushdilar. Ular uzoq yo'l yurib, ulkan qasrning ro'parasidan chiqdilar. Bu qal'a qaroqchilarning qarorgohi edi. Qasr shunchalar balandki, uning oxiri bulutlarga ulanib ketgan, minoralarining har bir yo'lagida devday-devday keladigan posbonlar qo'riqchilik qilib turishardi. Shu payt birdan ularning atrofini qaroqchilar o'rab oldilar:

– Ha, bu joylarga o'z ajalini so'rab kelgan odamlar kim bo'ldi! Nahotki senlar o'limdan qo'rqmasang, – dedi bir ko'ziga qora boylog'ich taqqan, soqol-mo'yablari o'sib ketgan qaroqchi.

– Biz bu yerga ajalimizni so‘rab emas, balki o‘zimizga ustoz deb bilan jasur va dovyurak yengilmas Turg‘un qaroqchining xizmatiga kirish va shu bilan bizni kamsitgan Buxoroning nomdor polvonidan o‘chimizni olgani keldik.

– Sardorga xabar ber, ungacha bu odamlar shu erda tura-di, – dedi haligi bir ko‘zi bog‘liq qaroqchi pahlavonlarga tutib turgan nayzasini tushirmay. Uning yordamchisi xabar ber-ish uchun ichkariga qarab ketdi.

Xabar yetkazilgach, bahodirlar qaroqchilar qurshovida qal‘aga kirdilar.

Nihoyat, ular Turg‘un qaroqchi bilan yuzma-yuz keldi-lar. Turg‘un qaroqchi shu ekanda, o‘yladi Abdurahmon pol-von. Gavdasi filday, yelkasi Asqartog‘day, ko‘zlari o‘ljaxo‘r burgutning ko‘zlariday qonsiragan.

– Xo‘sh, sizlar kimsizlar? Bizning makonga yurak yutib kelgan ekansiz, demak, qandaydir niyatingiz bor.

– Sizning dovrug‘ingiz yetti iqlimga taralgan, – gap boshladi Abdurahmon polvon, – men ham yonimdagi yigitlarim bi-lan mayda qaroqchilik ishlarini qilib, tirikchiligimizni o‘tkazmoqdamiz. Biroq sizdek kuchli, cheksiz molu mulk egasi bo‘lishni istaymiz. Shu sabab huzuringizga keldik. Bizni xiz-matingizga oling, hunaringizni, g‘alabangiz sirlarini bizga ham o‘rgating.

– Shumi sizda asl muddao? – so‘radi qaroqchilar sardori yigitlarga sinovchan nazar tashlarkan.

– Faqat shugina emas, – Abdurahmon polvon ovozig-a no-chorlik ohangini berdi, – Buxoroda bir polvonlar to‘dasi chiqqan. Ularga qarshi bo‘lib kurashgan chog‘imiz rosa bizning dodimizni berdilar. Maqsadimiz kuchga to‘lib, ularning kulini ko‘kka sovr-ish.

– Men ham Abdurahmon polvon deganning dovrug‘ini eshitmoqdaman. Taassufki, uni na men, na yigitlarim taniydi. Ayg‘oqchilarimning xabar yetkazishicha, u menga qarshi kuch to‘playotgan emish.

– Xuddi o‘sha polvon bizni jangda chirpirak qilib tashladi.



Ancha azob chekdik, – deya Abdurahmon polvon boshini biroz quyi soldi.

Qaroqchilar sardori Abdurahmon polvon va uning yigitlarining turishiga, yuz-ko'zlariga boqdi. Polvon va uning do'stlari qaroqchilar huzuriga kelishlaridan oldin o'zaro kelishib, yuz-ko'zlarining ba'zi joylarini qontalash qilib, ko'kartirib, chandiqlik qilganlar. Sardor bu hiylaga ishonadi, qolaversa, Abdurahmon polvon va uning yonidagi yigitlarining norg'ul, pahlavon kelbat ekanligini hisobga olib, agar yaxshi tarbiyalasam, navkarim soni va qudrati yana-da oshadi. Lekin bular baribir shubhali. Ularni sinab ko'rish kerak deya xayolidan o'tkazdi.

– Sizlarga to'liq ishonch hosil qilish uchun, avvalo, barchangizni jang san'ati bo'yicha sinovdan o'tkazamiz. Bizda shunday tartib: agar yengilsangiz, bu qal'adan faqatgina murg'ul chiqadi. Lekin bugun siz mehmonsiz. Mehmonning hurmatini joyiga qo'yish mezbonning burchi. Bugun oqshom sizlar uchun ziyofat uyushtiramiz. Erta tongda sinovlar uchun nog'oralar chalinadi.

Aytilganidek, sahar tongda nog'oralar chalinib, do'mbiralari gumbirlab, botirlarni kurash maydoni sari chorladi. Abdurahmon polvon yigitlari bilan maydonga qadam qo'ydi. Sinovlar qilichbozlik, nayzabozlik, kurash, merganlik, ot choptirish bo'yicha o'tkazilib, polvon va uning bahodirlari qaroqchilarni o'z mahoratlari bilan hayronu lol qoldirdilar. Ular qancha urinmasinlar polvonni va uning chapdast yigitlarini yenga olmadilar. Jangda mag'lub bo'lgan qaroqchilarga rahm qilib, ularni o'ldirmadilar.

Bundan ta'sirlangan qaroqchilar sardori Abdurahmon polvonga:

– Nega mag'lub bo'lgan navkarimni o'ldirmading! Demak, sen qaroqchi emassan. Tobora sendan shubha qilyapman. Balki Abdurahmon polvon degani sendirsan.

– Agar Abdurahmon polvon bo'lganimda allaqachon navkaringizning boshini sapchadek uzib tashlagan bo'lardim. Men aslida uning qo'lidan huzuringizga arang qochib qutuldim. Shu kuchim bilan unga bas kelolmadim. Bil'aks men

sizning xizmatigingizga qaroqchilaringizni o'ldirish uchun emas, balki kuch-qudratingizni yana-da oshirish uchun kelganman.

Polvonning bu gapi qaroqchilar sardori ko'nglidagi shubhalar tumanini tarqatib yubordi va Abdurahmon polvon hamda uning yigitlariga qarata:

— Sinovlarda siz bizning ishonchimizni oqladingiz. Sizlarni sara jangchilar qatoriga qabul qilamiz. Sara jangchilar qasrimizning o'ta muhim joylarida soqchilikni o'taydilar, janglar olib boradilar. Sardoringizni esa ularga boshliq etib tayinlaymiz.

Shunday qilib, Abdurahmon polvon va uning yordamchilari nuroniy chol o'gitiga amal qilib, qaroqchilar ishonchiga kirdilar.

Kunlar bir-birini quvib o'tar, Turg'un qaroqchining suluv Barnoxonga bergan muhlati tobora yaqinlashib borar edi. Bu orada Abdurahmon polvon qal'ada yurar ekan, qal'ada qancha yurtdoshlarining qullik qilib, qaroqchilarga xizmat qilishi, qancha asirlar borligini, qarorgohga kiruvchi xufiya yo'llar va chiqish darvozalarini, Barnoxon va uning yaqinlari joylashgan makonlarni ipidan ignasigacha o'rganib chiqdi. Yigitlaridan biri orqali donishmand chol bergan ko'zadagi suyuqlikdan Barnoxonga ham kiritib, aytilgan fursatda foydalanishni ma'lum qildi.

Berilgan vaqt yakuniga yetdi va Turg'un qaroqchi osmondagi to'lin oydek porlab turuvchi Barnoxonga yuzlandi:

— Go'zalim, nihoyat sen aytgan vaqt etib keldi. Suyukliging seni izlab kelmadi. Endi qalbingdan menga joy ber. Katta to'y qilib, seni shu saroyimning malikasiga aylantiray.

— Siz aytgan so'zingizda turdingiz. Nima ham derdim. Mayli to'y qiling. Faqat shunday to'y qilingki, uning dovrug'i yetti iqlimga taralsin. Meni izlab kelmagan sevgilim bundan afsus va nadomatda qolsin, — dedi Barnoxon o'zini kamsitilganna-mo ko'rsatib. Bu ham Barnoxonning hiylasi bo'lib, to'ygacha uni seviklisi Abdurahmon polvon ozod etishini yaxshi bilardi.

Bu javobdan johil Turg'unning ko'zlari chaq nab ketdi. Atrofiga barcha qaroqchilarini yig'ib, navkarlariga buyurdi:

— Jasur yigitlarim! Shu vaqtga qadar ushbu qudratli qal'a

bekasiz, malikasiz edi. Endi bundan keyin uni yangi bir oy porlatib turajak. Ulkan to'y qilib, uylanishga qaror qildim. Shunday to'y bo'lsinki, dovrug'i yetti iqlimga taralsin. Bunda mana men degan san'atkoru sozandalar xizmat qilsin. Dasturxonlar mo'l bo'lsin, sharoblar daryo kabi oqsin.

Bunga javoban qarorgohni qarochilarning xayqirig'iyu baqirig'i larzaga keltirdi.

To'y taraddudi boshlanib ketdi. Abdurahmon polvonga to'y marosimlari vaqtida qal'ani qo'riqlash vazifasi topshirildi. Nihoyat, orziqib kutilgan fursat yetib keldi. Abdurahmon polvon qal'a ichkarisini zimdan kuzatdi. Bazm boshlanib ketgan, qaroqchilar sardori o'z odamlari bilan allaqachon bazmni boshlab yuborgan. Mayxo'rlik avji pallada, birov birovni tanimas. Baqir-chaqir, to's-to'polon, yo'g'on cho'zilib, ingichka uzilardi.

Abdurahmon polvon yigitlariga "Ishga kirishinglar!" ishorasini berdi. Tashqarida qal'a himoyasida turgan qaroqchilarni qilichdan o'tkazish boshlandi. Mayxo'rlikning kuchayishi unga qo'shib berilgan behush qiluvchi dorilarning ta'sir quvvatini battar oshirib yubordi. Bu vaqtda Barnoxon va uning yordamchi qizlari ham allaqachon ushbu dorilar bilan soqchilarni uxlatib bo'lgan edilar. Ichkaridagi qaroqchilar ham yer tishlatilgandan so'ng asirlar ozod qilindilar. Ular ko'zlarida yosh bilan bahodirlarni duo qildilar.

Yengilmas deb nom chiqargan Turg'un qaroqchi va uning yaqinlari esa mastlikdan g'o'ldirab nimalardir deb yotardi. Abdurahmon polvon ularning barchasini asir oldi. Ertasi kun ularga shunday dedi:

— Shu vaqtgacha qarshingizda turgan odamlar sizning qulingiz, cho'ringiz edilar. Siz ularni istaganingizcha azobladingiz. Bas shunday ekan, tegirmon navbati bilan. Endi sizlar ularga asir, qul. Ular nimani istasa, shuni qilsinlar, — dedi-da olomon ichiga qo'yib yubordi.

Ko'zida g'azab, qasos o'ti lovullagan, tuklari igna, tishlari xanjarga aylangan olomon och bo'ridek ularga tashlandi...

Abdurahmon polvon qaroqchilar qarorgohini musofirlar

uchun obod karvonsaroyga aylantirdi. Uni boshqarish, qo'riqlash uchun navkarlar tayinladi. Qaroqchilar orttirgan qirq tuyadan ortiq molu dunyoni esa yurtiga qaytarish uchun sevgili Barnoxon va bahodirlari bilan yo'lga tushdi.

Qaytishda donishmand cholnikida mehmon bo'lishdi.

– Zafar muborak, bo'talarim, – dedi chol yuzi yorishib.

– Otajon, murodlarimiz ushalganini bilganmidingiz? – so'radilar polvonlar.

– Tushimdami yoki o'ngimda, eslay olmadim, qirq boshli ilonning boshini yanchib tashlayotganlaringizni ko'rdim, – javob qildi nuroniy.

Yigitlar yana avvalgidek hayratda qoldilar.

Ular shirin taomlar bilan taomlanishib, sahar tongda nuroniyning duolarini olib, olis Buxoro sari karvon solibdilar.

Ulardan oldin yetib borgan chopar xushxabar bergach, Abdurahmonning keksa ota-onasi, butun Buxoro xalqi o'z qahramonlarini karnay-surnaylar bilan kutib olibdi. Asirda qolganlar o'zlarining yaqinlari bilan yig'lab-ho'ngrab ko'rishibdilar va polvonlar haqqiga uzundan-uzun duolar qilibdilar.

Chalingan karnay-surnaylar Abdurahmon polvon va suluv Barnoxonning to'y-tomoshalariga ulanib ketibdi. Shunday qilib, barcha o'zining murod-maqsadiga yetibdi.

## **PODSHOH, KIYIK BOLASI VA PAZANDA QIZ**

Bor ekanda yo'q ekan. Uncha uzoq bo'lmagan zamonda go'zal bir boy, farovon shahar bo'lgan ekan. U shunchalik boy ekanki, tuprog'idan oltin unarkan. Boyliklarining hisobi yo'q ekan. Xalqi to'q va farovon bo'lib, hech narsaga muhtojligi yo'q ekan. Podshohi odil, eliga g'oyat g'amxo'r bo'lib, xalqi ham uni juda sevarkan. Shohning ismi Fayzulloh bo'lib, u befarzand ekan. Bundan u iztirob chekar, ko'ngli yorishmas ekan. Ba'zan yuragi g'amga to'lgan vaqtlarda yurti bo'ylab kezib, bolalarga sovg'alar ulashar, ularni ko'rib, suyib, erkalab g'uborlarini tarqatar ekan. Hatto ota-onasidan yetim qolgan bolalarga homiylik qilib, ularning to'ylarini o'tkazar, bir-bir-

idan go'zal imoratlar solib berar ekan.

Kunlardan bir kuni mulozimlar shohning g'amgin ko'nglini shod etish maqsadida, unga shikorga chiqishni taklif etishibdi. Podshoh rozi bo'libdi va ular ovga chiqibdilar. Ov payti ularning ro'parasidan juda ham chiroyli, insonning ko'zini quvnatadigan, g'oyat muloyim bir kiyik bolasi chiqibdi. Birdan navkarlar qo'llaridagi kamonlariga o'qlarini joylabdilar. Shoh esa qo'lini yuqoriga ko'tarib, o'q uzmang ishorasini beribdi va hukm qilibdi:

– Bu kiyik bolasi ekan. Iloji boricha uni tirik tutamiz.

Hamma otlaridan tushib, kiyik bolasini o'ragan holda unga yaqinlashib bora boshlabdilar. Chapdast kiyik bolasi podshohning oldidan bir sakrab o'tibdida, qochib qolibdi.

Podshoh uni izlab topishni buyuribdi. Shu tariqa shoh va uning mulozimlari kiyik bolasining ortidan quvib, ancha olislab ketibdilar. Kiyik bolasi ularni bir uyga boshlab kelibdi va unga chopqillab kirib ketibdi.

Shikorchilar uy oldiga kelib, uning zulfinini chertdilar. Ichkaridan qiz bolaning kim u degan yoqimli ovozi eshitildi.

– Biz, – deya javob qildi mulozimlardan biri.

– Hozir otamni chaqiraman, – dedi yana boyagi yoqimli ovoz sohibasi eshik ortidan turib.

Beixtiyor podshohning ko'ngliga chiroq yoqilgandek bo'ldi. Naqadar mayin va hayotbaxsh ovoz. Bu kim bo'ldiykin. Go'yo tangrim nimadandir xabar berayotgandek, deya xayol surib turgan podshoh eshik ochilib, uydan odam chiqqanini ham payqamay qoldi.

– Assalomu alaykum, uzr, sizni bezovta qildik, – gap boshladi darvozani taqillatgan mulozim.

– Vaalaykum assalom, kelinglar!

– Biz yurtimiz podshohi bilan ov qilib yurgandik. Hayotni qarangki, bir kiyik bolasi bizni uyingizga boshlab keldi.

– Evoh, yurtim sarvarini kiyik bolasi tanibdi, men g'ofil bilmabman. Qiblayi olam, marhabo, kulbarnizga qadam ranjida aylang.

Ular hovliga kirishdi. Bu xonadon egasi elda Abdusamad mergan nomi bilan tanilgan bo'lib, ko'zi naq lochinining

ko'zi. Ming qadamdan tanga pulni uradi. Nafaqat mergan, u hatto hayvonlar tilini biladi. Ularni tezda qo'lga o'rgata oladi. Kerak bo'lsa, jonivorlarni tiriklayin qo'lga oladi. Kiyik bolasi ham shundan uning oilasida yashaydi. Ushbu kiyik bolasi husnu malohati ham ovozidek go'zal bo'lgan Hadichabegimning ovunchog'i. Onasidan etim qolgan bu kiyik bolasini vahshiy-lar yeb ketmasin deb Abdusamad mergan uyiga olib kelgan edi. Bugun esa u deyarli oila a'zosiga aylanib qolgan.

– Podshohim mening mehmonim ekanlar, ne baxtki, boshimizga baxt qushi qo'nmish. Shohim, ijizat eting, bu-gun sizlarni olib qolsam va mehmon qilsam.

Podshoh va uning mulozimlari rozilik bildirishibdi. Hadichabegimning qo'ng'iroqdek ovozi shohni hamon sarx-shushlik o'lkasida sayr qildirib yurardi.

Abdusamad mergan qizi Hadichabegimga sarxil taomlar tayyorlashni buyuribdi. Qizi mehmonlar uchun tandirda issiq shirmon nonlar yopibdi, bir-biridan mazali taomlar pishiribdi.

Dasturxonga tortilgan taomlar, issiq shirmon nonlar, bir-biridan totli va rohatbaxsh sharbatlardan huzurlangan pod-shoh hayratda qolibdi va so'rabdi:

– Aybga buyurmaysiz. Shunchalar totli taomlarni hatto saroyda ham yemaganmiz. Bularni kim tayyorladi?

– Podshohi olam, bu taomlarni mening yakkayu yolg'iz farzandim, ko'zimning nuri qizim Hadichaxon tayyorlagan. Onasi olamdan o'tgach, uni bir o'zim voyaga etkazdim. Faqat bir holat bor...

– Qanday holat?! – so'radi podshoh.

– Faqat bu qizimning ko'zi ojiz, oyog'i esa cho'loq.

– Unda shuncha narsani qizingiz qanday qilib tayyorladi?!

– shoshgancha so'radi podshoh.

– U bunday ishlarni bolalikdan qilgani uchun o'rganib ketgan.

Podshoh chuqur xo'rsindi. Abdusamad mergan shohni zimdan kuzatib turardi.

– Qizingizning ko'zi ojiz bo'lsa-da, qalb ko'zining charaqlab porlab turishi uning ovozidan, tayyorlagan mana bunday totli taomlaridan ayon bo'lib turibdi.

– Lutf ayladingiz, shohim, ofarinlar bo'lsin! – deyishdi mulozimlar shohning gapini tasdiqlab.

Bu voqeadan shoh qattiq ta'sirlandi. Shohning o'ychan bo'lib qolganligini sezgan mulozimlar uning fikrini chalg'itish maqsadida, hazil-mutoyibalar bilan uning ko'nglini olishga tirishdilar. Nihoyat, shikorchilar saroyga kirib kelishdi.

Uni vaziri a'zam podshohning ustoz, murabbiysi – Hikmat bobo peshvoz chiqib kutib oldi va undagi o'zgarishni darhol sezdi.

Salom-alik va hordiq chiqarilgandan so'ng Hikmat bobo podshohga yuzlandi:

– Podshohim, siz menga nafaqat yurt sarvari, balki farzandim kabi, qobil bir shogirdim sifatida qadrlisiz. Negadir men sizning yuzingizda va ruhiyatingizda shikorga chiqib ketgan kundagi quvonchni, shijoatni ko'rmayapman. Qandaydir bir his qalbingizda g'alayon qilayotganligini ko'zingiz oynasida ko'rib turibman. Buning boisi ne, sharhi hol qiling. Zero, yengil tortgaysiz.

Podshoh yana bir bor chuqur xo'rsindi va bo'lgan voqeani boshdan-oyoq, ipidan ignasigacha bayon etdi.

O'z nomi bilan hikmatda, donishmandlikda yurtda dong taratgan Hikmat bobo bir zum sukut saqladi va ko'zlari porlab, shogirdini arzimas xatosi uchun yengil koyiyotgan ustoz kabi gap boshladi:

– Sizga men hikmat bobida necha-necha saboqlarni berganman. Biroq buni qarangki, oddiy bir mergan hikmat bobida siz mendan donoroq ekan.

– Nega ustoz?-dedi podshoh yuragiga nimadir umid uchqunini sochgandek.

– Mergan sizga qarab: qizimning ko'zi ojiz, oyog'i cho'loq deganda, uning yuz-ko'ziga boqdingizmi?

– Yuz-ko'ziga-ku boqmadim, biroq menga go'yoki meni kuzatayotgandek tikilib turganligini his etdim.

– Masala ravshan. U ayni gapni sizni sinash uchun aytgan. Aslida qizimning ko'zi ojiz degani qizimning nomahramga ko'zi tushmagan, noma'qul ishlarni ko'rmagan, cho'loq degani esa -

noma'qul ishlar sari qadam bosmagan, degan ma'nolarni beradi.

– Nahotki, – degancha podshoh joyida o'tirib qoldi. Xay-ollar uning ongu shuurini chulg'ab olgan edi.

Shogirdining holatini kuzatib turgan Hikmat bobo biroz sukutdan so'ng asta gap boshladi:

– Aslida hikmatning boshi bunda emas, balki kiyik bolasining sizga duch kelganligi va uning mergan uyiga sizni boshlab bor-ganligidadir. Ko'nglimga kelurkim, bu Yaratganning hikmati.

– Ustoz, gaplaringizdan qalbim va aqlim yanada yorishayotgandek go'yo.

– Ijzat etsangiz, ushbu mergannikiga sovchi bo'lib bor-sam. Qodir egam shunday soliha, kamtarin va pazanda qizdan sizga shirin-shirin farzandlar ato etsa, ne ajab?!

Podshoh biroz o'ylab ko'rishini aytdi. Vaziri a'zam ma'qul ishorasini qildi.

Shoh o'ylab ko'rib, ustozni - vaziri a'zam Hikmat bobon-ing mergannikiga sovchilikka borishiga rozi bo'ldi. Hikmat bobo mulozimlar bilan Abdusamad mergannikiga yo'l olishdi. Borib eshik zulfinini taqillatishgan vaqtda hovlidan uning hozir de-gan ovozi eshitildi.

– Assalomu alaykum, – dedi Hikmat bobo tavoze bilan.

– Vaalaykum assalom, otaxon, keling, – deya alik olgan mergan mehmonlarni darrov tanidi, – nega tashqarida turib-sizlar, ichkariga marhamat, – dedi qo'lini ko'ksiga qo'yganча.

– Bu gal podshohi olam tashrif buyurmabdilar-da yoki bizdan xafamikanlar, – so'radi mergan yuziga xavotir inib.

– Aslo, biroq ularning nomlaridan biz huzuringizga keldik, – salmoq bilan so'z boshladi Hikmat bobo.

– Qulluq, taqsim, qulluq. Biz faqirlarni hazrati oliylari yodga olibdilar-mi bundan ortiq baxt yo'q, illo, – javob qildi mergan.

– Ya'nikim, – vaziri a'zam so'zida davom etar ekan, asta muddaoga o'ta boshladi, – sizning bog'ingizda asragan gulin-gizga shohimiz shaydo bo'libdurlar. Rozi-rizolik ila to'y qilsak. Yaratgan egam sizning karimangiz sharofati ila zoti oliylariga shirin bir farzand ato etsa. Inshoolloh butun raiyatning dili shodlik nuri ila nurafshon bo'lur edi.



– O, bu biz faqirlarga g‘oyat sharaf va baxt-saodat mujdasidir. Biroq biz bir faqir bo‘lsak, shohimizga nasl-nasabda muvofiq bo‘lmasak, – deya mergan gapini qanday davom ettirishni ham bilmay qoldi.

– Taqdir, bu ne deganingiz. Shoh bo‘lsin, gadodir barchasi Yaratganning o‘jiz bir bandasi. Molu mulk bandaning emas, Yaratgannikidir.

– To‘g‘riku-ya, ammo, – deya mergan gap boshlagan edi hamki, Hikmat bobo uning gapini og‘zidan oldi:

– Nima demoqchiligingizni bilib turibman. Qizingiz aslida o‘jiz emas, balki nomahramga, noma‘qul ishlarga boqmagan, ko‘rmagan, cho‘loqligi esa noma‘qul ishlar sari qadam tashlamaganligining ramzidir.

Mergan hayrat yoqasini tishlagancha qotib qoldi va asta tilga kirdi:

– Otajon, men o‘zimni dono derdim. Aslida siz ulug‘ hikmat sohibi ekansiz.

– Buyuk hikmat sohibi Oллоhdir, – merganning gapiga qo‘shimcha qildi Hikmat bobo.

– Yo‘qsa, men bu xabarni qizimga aytib ko‘ray. Ne bo‘lganda ham, uning ko‘ngliga quloq tutmak xayridur.

– Shak-shubhasiz, bu fikringiz haqiqatdur.

Mergan suluv va aqli raso, pazanda, qo‘li gul qizi Hadich-abegimga mehmonlarning fikrini aytdi. Bunga javoban Hadich-abegim:

– Otajon, siz meni onamning yo‘qligini bilintirmay katta qildingiz. Men uchun butun borlig‘ingizni baxshida qilib, voyaga yetkazdingiz. Bilamanki, otalar farzandlariga hech qachon yomonlikni ravo ko‘rmaydilar. Siz qanday qarorga kelsangiz, men roziman. Faqat bir hol borki, men sizdan uzoqqa ketsam, o‘zingiz yolg‘iz qolasiz. Sizga mendan boshqa kim qarab, holingizdan xabar oladi?! – deya Hadichabegim ko‘zlariga yosh oldi. Beixtiyor ko‘zlaridan dur kabi yosh tomchilari dumalab tushdi. Erka kiyikchasi esa yugurgilab uning yoniga kelib, biqinidan niqtab, go‘yoki yig‘lama deyayotganga

o'xshardi. Bu vaqt merganning ham ko'ngli allanechuk bo'lib, bo'g'ziga achchiq bir nima tiqilgandek bo'ldi. Chiqib, mehmonlarga xabarni yetkazdi.

Mehmonlar xushxabarni eshitgach, yaxshi niyatlar ila duoyi fotihalar qilibdilar. Mergan o'z odatiga ko'ra, yana ularga javob bermay, bir kun uyida mehmon qilibdi. Hikmat bobo dasturxonga tortilgan shirin taomlardan bahramand bo'lib, podshoh Hadichabegimni bejiz maqtamaganligiga yana bir karra ishonch hosil qilibdi.

Shunday qilib, dono va odil, xalqining suygan rahnamosi bo'lgan Fayzullo podshoh katta tantanalar bilan go'zallikda va fahmu-farosatda tengsiz Hadichabegimga uylanibdi. Kunu oylar o'tib, Hadichabegim pahlavondek o'g'il tug'ibdi. Saroyda podshoh buning shukronasiga xalqiga qirq kechayu qirq kunduz to'y berib, xayr-saxovat ko'rsatibdi.

Qizning otasi Abdusamad mergan-chi deysizmi?! U donolikda benazir bo'lganligi uchun vaziri a'zam — Hikmat boboning yordamchisi etib tayinlanibdi.

## HASADGO'Y TULKI QISMATI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. O'tgan zamonda katta bir o'rmonda hayvonlar yashar ekan. Ularning podshohi janob sher bo'lib, unga barcha hayvonlar bo'ysunarkan. Sher janoblarning momiq quyonboy degan itoatli xizmatkori bo'lgan ekan. Uning xizmati janob sherning qayerga borsa kovushini to'g'rilab qo'yish va:

— Yaxshilik qilganga yaxshilik qilgin. Yomonlik qilganga indama, chunki uning yomonligi o'zining boshiga yetadi, — degan hikmatli so'zni aytish ekan.

Quyonvoyni bu so'zidan barcha hayvonlar, hatto janob sherning o'zi ham ba'zida qahru g'azabini jilovlab, qo'l ostidagilarga muloyimlik, rahm-shafqat bilan munosabatda bo'lar ekan. Shu sababli ham, o'rmondagi barcha hayvonlar ahilinoq, totuv, farovon yasharkan.

Momiq quyonvoyni barcha hurmat qilar, unga havas ko'zi

bilan qararkan. Chunki u oqqo'ngilligi, sher janoblariga g'oyatda sadoqatligi bilan hurmat-e'tibor qozongan ekan. Lekin har qanday yaxshining ham bitta bo'lsa ham dushmani bo'larkan. Shu o'rmonda momiq quyonvoyni ko'rolmaydigan bitta hayvon - u ham bo'lsa hasadgo'y tulkixon ekan.

Tulkixon hamisha quyonvoyning ortidan g'iybat-bo'hton qilib yurarkan. Quyonvoyning martabasiga hasad qilib, shohning oldida yurganini, u bilan yaqinligini, birgalikda shirin taomlar yeyishini eslab, ichi ko'mirdek kuyib, alam qilarkan.

Tulkixon ko'pdan beri quyonvoyni chuv tushirishni, shohning oldida uni beobro' qilib, o'rmini egallashni niyat qilib yurgan edi.

Kunlardan bir kun quyonvoyning shoh huzuridan uyiga qaytayotganini ko'rgan tulki "Nihoyat men kutgan kun keldi"-deya ishshayib kaftini kaftiga ishqalabdi va ko'zlarini ayyorona yaltiratib, soxta tabassum bilan dumlarini likillatgan ko'yi quyonvoyga peshvoz chiqibdi va debdi:

— Xush ko'rdik, quyonvoy janoblari! Ko'pdan beri siz bilan suhbat qurish orzusida edik. Sizning ikki og'iz shirin so'zingizni eshitish biz faqirlarga g'oyat sharafdir.

— Qulluq tulkixon, qulluq. Hamisha sog' bo'ling. Men ham sizni ko'rganimdan g'oyat shodman, — debdi oqko'ngil quyonvoy.

— Quyonvoy janoblari, menda bir taklif bor. Shu desangiz sizni mehmon qilmoqchi edim. Atayin sizni xursand qilish istagida uyimda shirin taomlar tayyorladim. Shulardan bahramand bo'larsiz degan umiddaman.

— Rahmat tulkixon. Lekin bilasiz men onhazratlarining xizmatlaridaman. Sahar turib, ularning huzurlariga yetib borishim lozim.

— Biroz o'tiring, tanovul qilib, keyin mayli, borasiz uy-ingizga. Bir marotaba sizga iltimos qilmoqdaman, so'zimni yerda qoldirmang, — deya tilyog'lamalik qilibdi tulkixon.

Quyonvoy garchi tulkining ayyorlik qilib turganligini bilsa ham, unga qarshilik bildirishga ko'ngilchanligi yo'l qo'yamabdi. Mayli, kel bir zum o'tirsam o'tiray, mendan xafa bo'lmasin, keyin uyga boraman, degan o'y bilan unga rozilik bildiribdi.

Tulki esa ayni muddao debdi-da, quyonvoyni uyiga taklif

qilibdi. Dasturxonga tortilgan taomlardan unga yediribdi. Quyonvoy ularni tanovul qila boshlabdi. Tulkixon ataylab ovqatlariga uch kungacha og'izdan badbo'y hid keltiruvchi o'simliklardan qo'shgan ekan. Quyonvoy taomning issiqligida ularni bilmabdi.

Niyatini amalga oshirgan tulki quyonvoyni boplaganidan shodlanib, qarsak chalib o'yinga tushibdi va tong otishini in-tiqlik bilan kutib uyquga ketibdi.

Erta tongda quyonvoydan oldin borishim kerak deb sher janoblarining oldiga shoshilibdi. Shohning huzuriga kirib, unga ikkinchi hiylasini namoyon qilibdi:

— Shohim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, sizga bir gapim bor.

— Gapis, — debdi sher ovozi guldirab.

— Shohim, sadoqatli xizmatkorim deb yurgan quyon-voyingiz siz haqingizda bo'lmag'ur gaplarni tarqatib yuribdi.

— Qanday bo'lmag'ur gaplar ekan, — deya sher o'tkir nigohini unga qadabdi.

— Emishki, — atrofga olazarak qarab olib, tulki uydirma gaplarini davom ettiribdi, — sizning og'zingizdan badbo'y hid kelarkan, quyonvoy shu sababdan sizning oldingizda zo'rg'a, o'lganning kuni dan o'tirar ekan.

Sher bundan g'azablanib qattiq o'kiribdi. Bundan o'rmon larzaga kelibdi. Qushlar parillab osmonga ko'tarilibdi. Tul-kining bo'g'izidan tutib so'rabdi:

— Xo'sh, buni qanday isbotlaysan?

— Shohim, bunga isbotim bor. Agar aldasam, qahringizga muftalo bo'lay, — deya tulki sherning ko'ziga tik qarab yolg'on gapirib, qasam ham ichib yuboribdi. Tulki har qanday gapga farishtalarning omin deyishini shu onda unutilib qo'ygan edi chog'i.

Sher uni yerga qo'yib, davom et ishorasini qilibdi.

— Ishonmasangiz ko'rasiz, kelganda og'ziga niqob taqib keladi, — debdi tulki baqrayib va sekingina shohning huzuri-dan sirg'alib chiqib ketibdi.

Qaytishda atayin quyonvoy keladigan yo'ldan borib, uni kutib olibdi va undan hol-ahvol so'ragandek bo'libdi:

– Ha quyonvoy janoblari, yaxshi orom oldingizmi?  
– Eh tulkixon, kecha menga qanday taom bergandingiz, og‘zimni shuncha yuvib-chaysam ham, badbo‘y hid ketmayapti.  
– Yo‘g‘-a, quyonvoy janoblari. Sizni nahot mehmon qilib, xizmat qilib, endi tuhmatga qolsam. Unday demang, balki taomlarim sizni uzoqroq kutib qolganidan biroz shunday ta‘mga kirgandir. Mayli, agar men aybdor ekanman, keling aybimni yuvay. Mana bu niqob. Shuni taqib oling. Shunda shohning huzurlarida bemalol, xijolat chekmay o‘tirasiz, – debdi o‘zini mehribon ko‘rsatib.

Oqko‘ngil quyon tulkinging uchinchi hiylasiga ham ishonibdi. Mayli, rostdan ham niqobni taqib olsam, shohning ko‘ngli mendan behuzur bo‘lmaydi, deya sher janoblarining oldiga niqob taqib boribdi.

Quyonna niqobda ko‘rgan sher hayratda qotib qolibdi. Tulkinging aytganlari rostga o‘xshaydi. Ha, men bunga ishonib yursam, quyon emas, qo‘ynimga kirgan ilon ekan-ku, debdi shoh, ammo ko‘nglidagini bildirmabdi.

O‘rmonda biron hayvon xato qilsa, hammaning oldida jazolagan sher bu safar boshqacha chora qo‘llabdi. Shunday qilayki, bu jazoim barchaga ibrat bo‘lsin debdi va bir maktub bitib, uni quyonvoyga tutibdi:

– Mana buni xazinabonga olib bor. Ammo uni yo‘lda ochib o‘qimagin. Bu omonat va mutlaqo maxfiy bir xat.

– Xo‘p bo‘ladi shohim, – deya quyonvoy yo‘lga tushibdi.

Yo‘lda unga uchragan tulkixon qiziqib so‘rabdi:

– Quyonvoy qayerga yo‘l oldingiz?

– Shohimiz bir maktub berdilar va uni xazinabonga eltib berishimni tayinladilar.

Tulki xazinabonga olib boriluvchi xatlar asosan mukofotlar uchun bitilishini yaxshi bilardi. Shu bois ichiga o‘t oralab, boylik ilinjida ko‘zlari yonib:

– Quyonvoy, keling, shu maktubni men eltib beray, – debdi yalinib.

– Yo‘q, bu omonat, buni sizga topshirolmayman, – debdi quyonvoy norozi bo‘lib.

– Men sizni mehmon qildim, yana shohning oldida uyal-mang, qahriga uchramang, deb niqob berdim, – deya yaxshiliklarini minnat qilishga o'tibdi tulki.

Otilgan minnat toshlaridan chorasiz qolgan quyon rozi bo'libdi va maktubni xazinabonga topshirishni aytibdi.

Tulki quyonning gaplariga quloq ham solmay, xatni olganча oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib, qaydasan xazinabon deya chopib qolibdi.

Xazinabonga borgach, maktubni uning soqchilariga beribdi. Soqchilar tulkiga kutib tur, debdilar-da, xatni olib kirib ketib-dilar. Zum o'tmay, tulkiga ichkariga kir ishorasini qilibdilar. Tulki eshikdan kirishi bilan kimlardir uning ustiga qop-qora matoni yopib bog'lab tashlabdilar. Quloqlariga xazinabon ola bo'ring baland ovozlar bilan maktubni o'qiyotgani eshutilibdi: "Maktub olib borganning terisini shilinglar va unga somon tiqinglar!".

Shunday qilib, sherning hukmi ijro etilibdi... Quyonvoy esa birovgа yomonligi yo'qligi, oqko'ngilligi uchun balodan omon qolibdi.

Ertasi kuni quyonvoyning sog'-omon kelganidan hayron qolgan shoh endi g'azab otiga minay deganda, quyonvoy o'zining doimgi hikmatini takrorlabdi:

– Yaxshilik qilganga yaxshilik qilgin. Yomonlik qilganga indama, chunki uning yomonligi o'zining boshiga yetadi.

Hikmatdan sergaklangan sher g'azabini ichiga yutib:

– Nega buyrug'imni bajarmading, maktubim qani, – deb so'rabdi.

– Shohim, aybdorman, tulki maktubni xazinabonga olib bormoqchi bo'ldi. Buni rosa-rosa istadi. Majburligimdan maktubni unga berdim.

– Nega majbur eding?

– Chunki bir kuni uning uyida mehmon bo'lganimda men-gа og'zimdаn badbo'y hid keladigan taomlar yedirdi. Ertasiga esa niqob taqib ol, shohning huzurida xijolat chekmaysan, deb mengа niqob berib turdi, – dedi quyonvoy boshini quyi solib.

Sher bo'lgan voqeaning tagiga yetgach, ko'zlari yorishib ketibdi. U quyonvoyni bag'rigа bosib:

– Sen mening sadoqatli yordamchim ekanligingni yana bir bor isbotlading. Meni kechir, tulkinging gapiga ishonib, naq bo'lmasa, seni qatl etib yuborishimga sal qoldi.

– Hechqisi yo'q, shohim. Sizning va elimning tinchligi, xotirjamligi uchun buyursangiz, o'limga ham tayyorman, – dedi dono quyonvoy.

Shoh uning bu gapidan ruhlanib, quyonvoyni yana ham baland martabaga ko'taribdi va molu mulk beribdi.

Ertakdan ma'ni shulkim, birovga choh qazigan unga o'zi yiqiladi. Niyati rostligi va to'g'riligi uchun quyon o'limdan qoldi. Ko'ngli va fikri buzuqligi, yurgan yo'li egriligi uchun ayyor tulki hayotidan, jonidan ayrildi. Shunday ekan, hayotda hammamiz to'g'ri va ezgu yo'ldan yurishimiz lozim.

## DANGASA QUYONNING TUZALISHI

Bir bor ekan bir yo'q ekan. Katta o'rmonda bir quyon bo'lgan ekan.

U juda ishyoqmas, dangasa ekan. Hech ish qilmas, vaqtini faqat uxlash va behuda ishlar bilan o'tkazarkan. Hattoki o'z uyini tozalab, saranjom-sarishtalab ham o'tirmas, eskirgan joylarini ta'mirlashni esa xayoliga keltirmas ekan. Otasidan qolgan kulbada yozda o'ynab, qishda boshqa hayvonlardan yemish so'rab, kun o'tkazarkan.

Qiynalganida yordam so'rasa, barcha unga yordam berarkan, ammo o'rmonda biron hayvonnikida hashar bo'lsa, bor-mas, hech kimga yordam bermas, foydasi tegmas ekan. Uning dangasaligi, tekinxo'rliigi, ishyoqmasligi barchaning joniga tegibdi. Ko'p hayvonlar undan norozi bo'lib arzi hollarini o'rmon oqsoqoli Ayiq boboga aytibdi. Ayiq bobo dangasa quyonning oldiga kelib, nasihat qilmoqchi bo'libdi:

– Quyonvoy, bolam, sen juda dangasa bo'lib ketding. Otang rahmatli juda mehnatkash, bunyodkor, o'rmon ahli orasida o'zining zahmatkashligi bilan obro-e'tibor qozongan edi. Qurgan uyi o'rmonning eng ko'rkam imorati, yaratgan bog'lari esa o'rmonning jannati edi. Hozir-chi, undan qolgan uy kul-

bag'a, bog'i esa chakalakzorga aylandi. Dangasa va ayyor bo'lmay, mehnat qilib, bog' yaratib, imoratingni yangilasang bo'lmaydimi. Agar qiynalsang, bizlar senga yordam berishga tayyormiz.

Bundan quyoning ensasi qotibdi. Ayiq boboning gaplari quyovoyning bu qulog'idan kirib, u qulog'idan chiqib ketibdi. Beparvolarcha Ayiq boboga termulib, so'z qotibdi:

— Obbo ayiq bobo-ey, keksayib battar ezma bo'lib ketyapsiz. Bu hayot odamga bir marta beriladi. Shunday ekan, mazza qilib o'ynab-kulib qolish kerak. Uy qurishga, mehnat qilishga, sizga o'xshab bukchayib qolishga hali ulguraman, — deb xoxolab kulibdi-da, koptokni bir tepib, o'yin o'ynagani ketib yuboribdi.

Ayiq bobo afsus bilan boshini quyi solganicha uyiga qaytibdi.

Shunday qilib, o'yin-kulgi bilan o'tgan yoz poyoniga yetib, kuzning izg'irinlari va undan keyin qishning qahratonlari qilichini qayrab, o'rmonga uvvos solib kirib kelibdi. Hamma joyni oppoq qor qoplabdi. Uylarning tomalaridan uzun-uzun sumalaklar qilich kabi osilib qolibdi. Dangasa quyovoy kulbasida bir o'zi qolibdi. Yegani ovqati, isingani o'tini yo'q. Pechkasi buzilib yotibdi. O'tin yonmaydi, qizimaydi, mo'rilari to'lib yotibdi. Uyining tomidan chakka o'tyapti. Koptok tepganida tekkan deraza oynasi singanicha ko'ziga yangi oyna o'rnatilmagan. Undan guwillab sovuq kirmoqda.

Sovuqdan dag'-dag' titragan, qorni ochlikdan uvillagan dangasa quyovoy nima qilishini bilmay qo'shnisi xo'rozvoyni uyi oldiga kelibdi. Xo'rozvoyni uyini chiroyliligini. Mo'risidan pechkaning tutuni osmonga oq bulutdek taralmoqda. Uyining derazalari bus-butun, chiroyli qilib pardalar tortilgan, tuvakda gullar o'rnatilgan. Sekin derazasidan mo'raladi. Xo'rozvoyni o'z oilasi bilan issiqqina uyida o'tirib, tushlik qilmoqda. Dasturxonida turli sarxil taomlar, meva va sabzavotlar, ichimliklar muhayyo. Pechkasida esa gurillab yonayotgan o'tin uyini isitib turibdi. Xo'rozvoyni qanday baxtli-a, o'ylabdi quyovoy va shu tobda o'z uyiga tikilibdi. Bechora uyi unga nima qilay, degandek shumshayib, mung'ayib turar edi.

U xo'rozvoyni uyini taqillatdi. Eshikni ikki yuzi qipqizil xo'rozvoyni ochdi.



— Assalomu-alaykum, xo'rozvoy, — yalinchoq ohangda salom berdi quyonvoy.

— Vaalaykum, — dedi xo'rozvoy istar-istamay alik olib.

— Xo'rozvoy, men juda nochor ahvolda qoldim. Iltimos menga yordam ber! Borgani halovatli maskanim, yegani ovqatim yo'q. Bir qish sening uyingda jon saqlay.

— Bekorlarni aytibsan, — kekkaydi xo'roz.—Sen o'zi umringda biror kimga yaxshilik qilganmisan. O'rmonda bo'lgan hasharlarda qatnashganmisan. Yoki kimgadir yordam kerak bo'lganda, ko'mak berganmisan.

— Kel, kechiraqol. Uyingdan joy beraqol.

— Yo'q, — dedi xo'rozvoy qat'iy gapini bo'lib.—Mening uyimdasenday dangasaga joy yo'q. Bor ti pratikannikigabor, o'sha senga uyidan joy bersin!

Xo'rozvoyning gapini eshitib turgan ona tovuq qoqillab unga gapiribdi:

— Bekor haydadingiz bechorani. Mayli uyimiz keng, bir qish tursa turaqolmaydimi. Sovuqdan o'lib qolmasin tag'in.

— Aslida mening ham rahmim keldi. Lekin atayin uni uyga qo'ymadim. Toki ko'zi ochilsin. Ti pratikandan esa ko'nglim to'q. U juda ham dono. Quyonna olib, ayiq boboning oldiga olib borishini va pushaymon qildirishini bilaman.

Quyonvoy xafsalasi pir bo'lib, tarvuzi qo'ltig'idan tushib, quloqlari shalpayib, sovuqdan shumshayib, och qorni g'urillab, oyog'i dirillab ti pratikannikigaboribdi.

Ti pratikan uyidan chiqib:

— Xo'sh, mendan nima istaysan, — debdi quyonvoyga.

— Kirpijon, bilaman men butun o'rmon ahli oldida uyatli bo'lib qoldim. Qilgan ishlarimdan juda afsus qilyapman. Hozir xo'rozvoynikiga borib, bir qish uyingdan joy berib turgin desam, meni uyiga qo'ymadi.

— To'g'ri-da quyonjon, bundoq o'ylab ko'r. Sen hecham o'rmon ishlarida qatnashmasang, mehnat qilmasang. Tayyorga ayyor bo'lishni o'rganib qolgansan. Hamma hayvonlar yozu kuz qishlik uchun oziq-ovqat jamg'arsa, sen dikillab sakrab o'ynab yurding. Bu ham yetmaganday o'rmon oqsoqoli ayiq boboni

qattiq ranjitding. Endi esa mana bunday ahvolga tushding.

– Kirpijon, sen juda donosan. Va shu bilan birga mehribonsan. Iltimos men nima qilsam bo'ladi, maslahat ber.

Tipratikan bir zum o'yladi, topdim degandek ishora qildi:

– Quyjon, to'g'ri tushun. Mening uyim torligini o'zing yaxshi bilasan. Shu bois, qishni sen bilan o'tkazolmayman. Ayiq boboning uyi keng, xonalari bisyor. Buning ustiga hovlisi katta. Kel seni ayiq boboning oldiga olib boray.

– Yo'q, men ularning oldiga qanday boraman. Axir ularni ranjitgan bo'lsam, – dedi quyjon xavotirga tushib.

– Ayiq bobo mehribon, kechirimli. U ayibingni bo'yingga olib, bugundan o'zgarman, qo'lingizdagi hunarlarigizni menga ham o'rgatsangiz, bahordan hovlimda bog' barpo etib, imoratimni yangilayman deysan, – deya maslahat berdi tipratikan.

Bundan quyjonning ko'zlari quv nab ketdi. Ular ikkalalari birga ayiq boboning uyiga bordilar.

Ular ayiq boboning uylariga borganlarida ayiq bobo hovlidagi qorlarni kurayotgan edi. Boboga salom berdilar. Ayiq bobo quyjonvoyni ko'rib, asta qovog'ini soldi. Quyjonvoy esa negadir umrida birinchi marta uyaldi. Ichini nimadir qizdirgandek bo'ldi. Ko'zlarini ayiq bobodan olib qochdi.

Tipratikan gap boshladi:

– Ayiq bobo, quyjonvoy bugundan dangasalikni tashlab, o'zgarmaqchi.

– Nega buni o'zi emas, sen aytayapsan. Senga ham rosa va'dalarni berganga o'xshaydi, – dedi ayiq bobo.

– Meni kechiring, ayiq bobo, – yig'lamsiragan kuyi gapirdi quyjonvoy. – Menga garchi to'g'ri maslahatlar bergan bo'lsangiz ham, sizga quloq solmadim. Vaqtida dangasalikni yig'ishtirib, mehnat qilmadim. Oqibatda qishning sovuq kunida ovqatsiz, o'tinsiz, tomidan chakka o'tib, derazalaridan guvillab sovuq kiradigan kulbada qoldim.

– Xo'sh, bunday holga tushishingga kim aybdor? – so'radi ayiq bobo.

– Albatta, o'zim, o'zimning tanballigim, dangasaligim, – ko'zining yoshini artdi quyjonvoy.

— Yaxshi, senga bir imkon beraman. Bu qish mening uyimda yashaysan. Faqat bir shart bor. Bahorgacha mendan duradgorlik, bahordan esa dehqonchilikni o'rgansan. Keyin esa hovlingda chakalak bo'lib yotgan bog'ni obod qilib, kulbangni qaytadan qurasan. Hasharda esa barcha hayvonlar senga ko'makdosh bo'ladilar.

— Rahmat sizga ayiq bobo, — deya quyonvoy boboga minnatdorchilik izhor qildi.

Shunday bo'ldi-yu quyonvoy duradgorlik hunarini o'rganishga kirishib ketdi. Endi uning o'zgarganini eshitganlar nomiga qo'shib aytiladigan dangasa so'zini olib tashlab aytadigan bo'ldilar. Qish fasli ham asta o'rmini bahorga bo'shatib berdi, kunlar isib, quyosh zarrin nurlarini socha boshladi. Qish ichi quyonvoy ayiq bobo bilan birga yangi uyiga kerakli jihozlarni yog'ochdan yo'nib, arralab, randalab, tayyor qilib qo'ygan edi.

Bahorda hovlisidagi otasidan qolgan bog'ni chakalakzordan tozalab, eskilarining o'rmiga yangi ko'chatlar o'tqazdi. Obod holga keltirdi. Uyini buzib, ayiq bobo boshchiligida barcha hayvonlar bilan yangitdan tiklab, ko'rkam imorat shakliga keltirdi.

Yangi uyga kelgan mehmonlar ichida xo'rozvoy ham bor edi. Xo'rozvoy quyonjonni yangi uy bilan qutlar ekan:

— Quyonjon, esingdami, qishda seni uyimga qo'ymay, haydab yuborgan edim, — deya gap qotdi.

— Esimda xo'rozvoy, to'g'risi, o'shanda sendan xafa bo'lgan edim. Endi bilsam, bu ishni aslida mening foydam uchun qilgan ekansan. Sendan va dono ti pratikandan, bag'rikeng ayiq bobodan hamda hasharchi do'stlardan, barcha barchangizdan minnatdorman, — dedi quyonjon xursand ohangda.

Shundan so'ng mehmonlar uchun dasturxonga shirin taomlar tortilib, ular rosa o'yin-kulgi qildilar.

Qissadan hissa shulki, bir vqtlar dangasa deb aytilgan quyonvoy to'g'ri maslahatga quloq tutgani, yaxshi tomonga

o'zgargani uchun endi o'rmon ahli orasida mehnatkash, mehribon, do'stlariga g'amxo'r quyonjon nomini oldi.

Ha, mehnat qilgan ulug'likka erishadi. O'rmonga borganingizda, quyonjonning hovlisida mehmon bo'lsangiz, bunga o'zingiz ham ishonch hosil qilasiz.

## UCH OG'AYNI

Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan, bo'ri bak-ovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan. Qadim zamonda vodiy tomonda bir qishloqda Fozil degan chol bo'lib, uni xalqi Fozil bobo deya hurmat qilarkan. Chunki u umri mobaynida eliga sadoqat bilan xizmat qilib, barchaning hurmat-e'tiborini topgan ekan. Uning uch o'g'li bo'lib, o'g'illarini bolaligidan ularga chiroyli ism qo'yib, har tomonlama barkamol insonlar etib ulg'aytiribdi. Chol o'g'illarini halol yedirib-ichirib voyaga etkazibdi. Ularni zamonasining ilmda tengsiz olimlari, pahlavonlari va jang san'ati ustalariga shogirdlikka beribdi. Buning natijasida uch o'g'lon jang san'ati, otda yurish, suvda suzish, merganlik, kurash, donishmandlik saboqlarini mukammal egallashga erishibdi.

O'g'lonlarning kattasining ismi Mansur botir, o'rtanchasining ismi Mahmud botir, kenjasining ismi esa Maqsud botir ekan. Ular odob-axloqda, mehnatda, jangu jadalda ham mumtoz bo'lib, barchaga ibrat va namuna ekanlar.

Kunlarning birida Fozil bobo o'g'illarini qoshiga chorlab, ularga shunday debdi:

— O'g'illarim, gaplarimni jon qulog'ingiz ila tinglang. Yaratgan egamga shukronalar bo'lsinki, men sizdek qobil farzandlar tilagan edim. U mendan o'z marhamatini darig' tutmadi. Ko'p yillar elga xizmat qilib, uning e'tiborini topdim. Bunga men o'zimning halol mehnatim va elimga sadoqatim evaziga erishdim. Shunga ham shukurki, sizlar har bir ota orzu qiladigan, faxrlanadigan o'g'lonlar bo'lib voyaga yetdingiz. Endi sizlarni

o'z baxtingizni izlash uchun chiqiladigan mashaqqatli safarga yubormoqchiman. Toki o'zingiz elingizdan tashqarida, musofirlikda yurib, hayotni ko'ring, baxtingizni toping. Mening ham yoshim o'tib, keksayib qoldim. Ko'zlarim nurining borida sizlarning baxtingizni ko'rsam mendan yanada baxtli odam bo'lmaydi.

O'g'lonlarning to'ng'ichi Mansur botir ukalari nomidan qo'lini ko'ksiga qo'yib gap boshlabdi:

— Otajon, siz bizni har bir o'g'lon orzu qiladigan darajada tarbiyalab, kamolga yetkazdingiz. Biz sizdek oqil, donishmand, elining koriga yaraydigan insonning farzandi ekanligimizdan baxtlimiz. Siz qanday qarorga kelar ekansiz, hukmingiz biz uchun qonun. Aytganingizdek musofirlikni ko'rib, hayotning achchiq-chuchugini totish har bir yigitning burchi.

Ota o'g'illarining qo'lini ko'ksiga qo'yib, itoat ila bosh egib turganini ko'rib, beixtiyor ko'zlariga yosh oldi va dedi:

— O'g'illarim, sizlar uchun o'zingizga mos bo'lgan tuyoqlaridan chaqin sochuvchi uchta uchqur ot va kerakli anjomlarni tayyorlab qo'ydim. Erta saharda yo'lga chiqursizlar.

Ertasi kun saharda uch botir o'g'lon padari buzrukvorining duolarini olib, safarga chiqibdilar. Ular yo'l yuribdilar, yo'l yursa ham mo'l yuribdilar. Yurib-yurib katta bir o'rmon qarshisidan chiqibdilar. O'rmon yam-yashil bo'lib, qushlar sayrog'i bilan to'lib-toshgan, manzarasi so'lim edi. Past tomonda esa baland tog'lar bag'ridan kelayotgan soy sharqirab oqib yotardi.

Yo'lda horigan botirlarning kattasi Mansur botir ukalariga shu yerda tunab, keyin safarni davom ettirishlarini aytibdi:

— Ukajonlar! Nima bo'lganda ham bu yerlar bizga begona. Sizlar yaxshi orom olinglar. Men qo'riqchilikda turaman, — desa ukalari yo'q men qo'riqchilikda turay deyishibdi. — Unday bo'lsa, mayli navbat qilamiz. Bugun men, keyin esa sizlar, — debdi to'ng'ich botir.

Ular chodir tikib, taom tayyorlabdilar va undan bahramand bo'libdilar. Zum o'tmay ukalar uyquga ketibdilar.

To'ng'ich botir ularni turli xatarlardan avaylab, navbatchilikni o'tashni boshlabdi. Bir vaqt sukunatni qandaydir sharpa buzayotganligini payqadi. Ukalarini uyg'otib yubormaslik uchun otining jilovini sekin tortib, sharpa tomon yura boshladi. O'rmonga yaqinlashib, soy labiga yetay deb qolgan ham ediki, boshi uzra ulkan, qanotlarini yoyganda oy nurini to'sib qo'yadigan qush uchib o'tayotganligini ko'rdi. Qush ham odam isini sezganidan ortga qayrilib, to'ng'ich botirga qarab uchib kela boshladi. Botir o'zini panaga oldi va mustahkam qilib to'qilgan arqonini uning bo'yniga qarab otdi va daraxtning ikkinchi uchini o'rmon qirg'og'idagi ulkan daraxtga bog'ladi. Qush tuzoqqa ilinganini sezdi va botirga hamla qilishdan to'xtab, tilga kirdi:

— Ey odamzod. Sen meni yengding. O'tinaman, meni qo'yib yubor. Agar meni o'ldirsang, jo'ja polaponlarim ham ochlikdan nobud bo'ladi.

Ulkan qushning jo'jalari borligini eshitgan botirning dili allanechuk bo'lib ketdi va uni tuzoqdan ozod etdi.

— Rahmat senga, mehribon inson! Yaxshiligingni aslo unutmayman. Mana mening patlarimdan ol, yordamim kerak bo'lsa, ularni tutat va men qoshingda hozir bo'laman.

To'ng'ich botir uning patlaridan olibdi va yoniga solibdi.

Ukalarining yoniga borib navbatchilikni davom ettirayotganda ufq oqarib qolgan edi. Botirlar uyg'ongach, ukalarimning diliga g'ashlik cho'kmasin, deb Mansur botir bo'lgan voqeani aytmedi. Mavridi kelib qoladi, dedi-da indamadi.

Ular yana yo'lda davom etibdilar. Uzoq yo'l yurib, oldingidan ham go'zal o'rmon ro'parasidan chiqibdilar. O'rmonga kiraverishda ulkan sharshara bo'lib, uning yonida qandaydir bir hayvonning shaklini eslatuvchi ajabtovur qasr bor ekan. Botirlar qasr eshigi yoniga keldilar. To'ng'ich botir uni taqillatdi. Javob kelmagach, kim bor deb chaqirib ko'rishdi. Biroq eshikni hech kim ochmadi. Iznsiz bironvning uyiga kirishga odatlanmagan botirlar o'rmonga yaqin joyda chodir tikdilar. Taom tayorlab, qorinni to'qladilar. Ularga bu joylar tobora sirli ko'rinib, qanday joyligini mushohada qilardilar. Oqshom tush-

gach, o'rtancha o'g'il – Mahmud botir qo'riqchilikni zimmasiga olibdi. Botirlar yo'l yurib, charchaganliklari bois, tez uyquga ketib qolibdilar. Mahmud botirning xayolidan esa boyagi qasr ketmas edi. Nima bo'lganda ham u yerda bir sir bor. Akamni va ukamni ehtiyot qilishim kerak. Chunki bu joyiar bizga begona debdi-da, hushyorlikni yanada oshiribdi.

Vaqt allamahalgaga borgach, qasr tashqarisida, keyin ichkarsidali pillab yongan bir yorug'likka ko'zi tushibdi. Avval u nurga, keyin esa olovga o'xshab parpiray boshladi. Bu nima ekan deya Mahmud botir asta qasr tomon yo'l oldi. Bu qasr aslida ushbu joylarni zo'rlik bilan egallab olgan, odam izini quritgan berahm yalmog'izning makoni edi. Yalmog'iz o'rmon podshosi sherni tuzog'iga ilintirib, bandi qilgandan so'ng barcha hayvonlar ham uning izmida edi. Botir qasrga yaqinlashgani sari yalmog'izning jazavasi ortardi:

– Bu yerlardan odam isi kelmay qo'yganiga ming yillar bo'lgandi. Kim o'z ajalini istab bu yerlarga kelayotgan ekan. Mayli kelaversin, u kelgunicha men odam pishiradigan qozonimda suv qaynatib turaman, – debdi.

Mahmud botir qasr eshigini taqillatgan edi, ichkaridan "Kiravering!" degan ovozni va g'alati qahqahalarni eshitdi. Botir kirib endi salom bermoqchi edi, ustidan tushgan to'rni ko'rdi va tuzoqqa ilinganini bildi. Chunki bu to'r sehrli bo'lib, uni har qanday keskir qilich ham kesa olmas edi.

Botirning ro'parasida sochlari to'zg'ib ketgan, tishlari so'yloq bo'lib o'sib chiqib, burniga etgan, ko'zlari g'ilay bir yalmog'iz turardi.

– Xush kelibsan, odam bolasi. Ko'pdan beri odamning lazzatli go'shidan yemagan edim. Bugun endi ziyofat bo'larkan biz uchun dedi-da, negadir bo'ynidan qoziqqa bog'lab qo'yilgan mushugini bo'g'ib, uni bir ingratib qo'ydi. Mushuk esa botirga jovdiragancha behol qarab qo'ydi.

Yalmog'iz botirni qozonga solish taraddudida nimalardir qilayotgandi. Buni sezgan botir o'zini yo'qotmadi, aksincha aqlni ishlatib, tadbir bilan ish ko'rishga o'tdi.

– Sen mening go'shtimni yemoqchimisan.

– Ha, – dedi yalmogʻiz soʻyloq tishlarini koʻrsatib.  
– Bir oʻzimni yeb baribir toʻymaysan, agar meni qoʻyib yuborsang, senga juda koʻp odamni koʻrsataman. Ular mendan goʻshtli, semiz, yurasanmi bu yerda parrandayu darranda goʻshtini yeb, – dedi botir.

– Ular qayerda?–dedi yalmogʻiz lablarini yalab.

– Meni toʻrdan chiqarib yubor, koʻrsataman, – dedi botir.

Yalmogʻiz botirga ishonib, qoʻlini yechdi. Botir atayin yerga chuqur qilib qazilgan, olovi gurillab yonayotgan oʻchoqning tepasiga keldi. Yonidagi koʻzguni qoʻliga oldi-da:

– Mana bunga qara, – dedi.

Yalmogʻiz bunga ishonib, endi koʻzguga qarayman degan edi, botir uni oʻchoqning ichiga itarib yubordi. Yalmogʻizning oʻzi ham, sehru jodusi ham yonib ketib, zimiston qasr birdan nurafshon saroyga aylanib qoldi. Qarshisida qoziqqa bogʻlab qoʻyilgan mushuk birdan ulgʻayib, bahaybat arslonga aylandi. U bir siltab qoziqni uzdi-da, botirga qarab kela boshladi. Botir epchillik bilan qilichini oldi va himoyaga otlandi. Shu payt boyagi arslon tilga kirdi:

– Ey aql egasi odamzod. Qoʻrqma, senga yomonligim yoʻq. Aslida sening yaxshiliging oldida qarzdorman. Men aslida mushuk emas, shu oʻrmonning podshohi – arslon edim. Yalmogʻiz meni sehru jodu bilan mushukka aylantirib, har kuni ermak qilar edi. Oʻrnimni egallab, oʻrmonga shohlik qilib, barcha parrandayu darrandalarga ozor yetkazar edi. Sen nafaqat meni, balki butun oʻrmon ahlini bandilikdan qutqarib, ozodlikka olib chiqding. Sen mening momiq yungimdan ol va boshingga mushkul ish tushsa, uni tutat, men oʻz qoʻl ostimdagi oʻrmon ahli bilan senga koʻmak beramiz, – deya arslon botir bilan xayrlashdi va gʻoyib boʻldi.

Boʻlgan voqeadan Mahmud botirning dili ravshan tortdi. Chunki qandaydir ezgu ishni amalga oshirsang, bu ish ruhingga orom, vujudingga zavq bagʻishlaydi.

Botir akasi va ukasining oldiga borganda, tong yorishay deb qolgandi. Ular chodirda sogʻ-salamat uxlab yotardilar. Uyqudan uygʻongach, yana safarda davom etibdilar.



Uch aka-uka pahlavonlar uch kechayu uch kunduz yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, yuksak tog'lar qarshisidan chiqibdilar. Tog' yonbag'ri ko'm-ko'k yaylovlar. Yaylovlarda qo'y-qo'zilar, sigir-buzoqlar o'tlab yurardi. Cho'ponlarga ko'zi tushib, bu chorva, yaylovlar kimning mulki, deb so'rasalar, Qiron devniki, deyishibdi. Qiron dev kim desalar, javob bermay indamay o'tib ketishibdi.

Botirlar buni bilmasdilar. Bu joylar Qiron atalgan bahaybat devning mulki bo'lib, uning sariq dev va olov dev atalgan ukalari bor edi. Ular hammasi bir bo'lib ellarga hujum qilar, ularning molu mulkini talon-taroj qilib, o'g'irlab olar, odamlarni asir olib, qulga, cho'ponga aylantirardilar.

Botirlarning bu makonga qadam qo'yishlaridan oldin devlar tog'ning narigi tomonidagi mamlakatga hujum qilgandilar. Undan go'zal uch opa-singil maliklarni va suluv qizlarni olib kelib, o'z g'orlarining asiralariga aylantirgan edilar. Ana shu jangdan qaytgan devlar horib-charchab uxlab yotgandilar.

Uch og'ayni ushbu g'orga yaqin joyda chodir qurdilar. Keng yaylovda charchoqlarini chiqardilar. Kun og'ib, qorong'u tushdi. Kenja botir akalariga bemalol dam olishlarini, qo'riqchilik uning navbati ekanligini aytdi. Tun yarmiga borgach, tog' tepasidagi g'orda nimaningdir guldiragan ovozi eshitildi. Bu ovoz kenja botirni sergaklantirdi. Qulog'lni ding qilib, ko'zini o'sha tomonga tikdi. Haligi ovoz yana bir bor guldiradi-da, keyin jonsiz bir olovga o'xshagan shu'la paydo bo'lib, o'chdi. Bu yerda nimadir bor, o'ylaydi kenja botir ichida. Akalarini uyg'otib yubormaslik uchun sekin yurdi-da, tog' qoyasiga arqonini uloqtirib, unga arqonni ilintirib oldi va yuqoriga ildam ko'tarila boshladi. Ko'tarilgach, birinchni pog'onada kichik bir yo'lakka ko'zi tushdi. Shu yo'lak qayergadir olib boradi, deb o'yladi ichida. Yo'lakka tushib olib, atrofga olazarak qarab, oldinga yura boshladi. Tavba, yurgan sari kichik ko'ringan yo'lak tobora kengayib, kattalashib borardi. Shu tariqa aylana-aylana tog' cho'qqisidagi g'orga, devlar makoniga chiqib borganini payqadi va o'zini panaga oldi. Xarsang tosh ortidan asta kuzata boshladi. Yo'lak tugab, oldinda ulkan oltin darvoza turardi.

Uning ikki chetida har biri o'n xarsang toshdan katta bahaybat ikki dev turardi. Shunda devlardan biri:

– Sezyapsanmi, – dedi guldirab, – makonimizdan begona odamzodning isi kelyapti.

Ikkinchisi havoga burnini tutib, chuqur is oldi:

– Ha, yana shuni sezyapmanki, bu begona odamlar bitta emas, undan ko'proqqa o'xshaydi.

Botir ularning sezgirligidan xavotirga tusha boshladi. Tezroq bir yo'lini qilmasam, meni va akalarimni sezib qoladi, – dedi-da jangga tayyorlandi. Ikki qo'liga katta nayzasini olib, xarsang ortidan boyo'g'lining ovozi qilib sayray boshladi. Devlar bu joylarga hatto qush ham uchib kelolmasligini yaxshi bilardi. Biri hayron bo'lib, asta xarsang tomon yaqinlasha boshladi. Egilib tikilgan ham ediki, kenja botir ikki katta nayzasini kuch bilan uning ikki ko'ziga uloqtirdi va ko'zlariga joyladi. Og'riqdan o'kirib, cho'kkalagan devning ustiga chaqqonlik bilan sakrab chiqqan kenja botir g'azab va shiddat bilan kelayotgan devni kutib oldi va uning ko'ksiga qirq botmonlik qilichini zarb bilan sanchdi. Ikkinchi dev oh urib yiqildi va joni uzildi. Ko'zi ko'r bo'lgan dev yo'lini topolmay, botirga yalinishni boshladi:

– Ey odamzod, ko'zimdan ayirding, endi jonimdan ayirma. O'tinaman, nima desang aytganingni qilaman.

– Yaxshi. Agar menga yordam berib, g'or va devlarning sirini aytsang, joning omon qoladi, bo'lmasa, joningdan umidingni uz.

Dev unga barcha sirlarni oshkor qilibdi va debdi:

– Senga aytmaganim ikki-uch sir qoldi, birinchisi qiron devning joni. Uning qayerda saqlanishini faqatgina olov dev biladi, – debdi.

– Olov devning joni qayerda?-so'radi Maqsud botir.

– Olov devning joni sariq devning muz qilichida, – javob berdi ko'zlari ko'rmas dev.

– Sariq dev joni-chi?-so'radi botir.

– U sening qo'lingda, ya'ni sen uni yengishing kerak, – dedi ko'zi ko'rmas dev.

Shunday qilib, Maqsud botir g'or ichiga kiribdi va xonalar bo'ylab yura boshlabdi. G'orning yo'laklari tillodan bo'lib, yurganda yaltirar edi. Shu vaqt ichkaridan birinchi xonadan qizlarning ovozi eshitildi. Asira qizlar bo'lsa kerak, xayolidan o'tkazdi botir. Sekin eshikdan kirgan ham ediki, sariq dev asira qizlarni atrofiga yig'ib olganicha, uxlab yotardi. Ularning biri devning boshiga yelpig'ich tutgan, yana biri sharbatlar tayyorlagan, yana biri esa mayin qo'shiq kuylardi. Botimi ko'rgan qizlar hayratdan angrayib qolibdilar. Chunki bu yerga erkak kishi kirmagan, birinchi erkak shu botir edi. Ular yigitga joningdan umidining bo'lsa, qoch, ket bu yerdan ishorasini qilibdilar. Botir yo'q deganicha qilich-kamonlarini hozirlab, devga hayqiribdi:

– Hoy dangasa va tekinox'r dev. Tur o'ringdan, – debdi. Chunki botir dev bilan halol, yuzma-yuz jang qilishni istardi.

Dev og'zini tandirday ochib esnabdi va gulduros kekiribdi:

– Kim bu mening huzurimda oromimni buzayotgan odam bolasi.

Bu men sening ajaling bo'lib kelgan odam, – debdi botir devning ko'ziga tik boqib.

– Yo'q, sen o'zingga ajal bo'lib, o'limingni istab kelgansan mening yonimga debdi, – va qah-qah otib kulibdi sariq dev.

– Agar zo'r bo'lsang men bilan mardlarcha kurashga chiq.

– Mayli roziman, – debdi sariq dev va ikkalasi kurashga tushibdi. Kenja botir raqiblarini kurashda oyog'ini yerdan uzib, havoda aylantirib chirpirak qilib yerga urardi. Bunday vaqtda u yerdan cheksiz kuch olardi.

Xuddi shu kabi botir yuksak tog' ustidagi g'orda tog'u toshlardan yanada ko'p kuch-quvvat oldi va unga devning kuchi hech narsa bo'lmay qoldi. U devni kokilidan tutdi-da, boshi ustida yetti marta chirpirak qilib aylantirdi va zarb bilan yerga urdi. Dev yer bilan bitta bo'lib, chilparchin bo'ldi. Yerga urilganda, sariq dev xonasida javohirlardan yasalgan chiroqlar bandidan uzilib yerga tushdi va sochilib ketdi. Zarbdan g'or larzaga keldi. Bu zarbdan xoynahoy boshqa devlar ham sergaklangan bo'lsa kerak, degan o'yda botir qizlarga qaradida, ularning gaplariga quloq tutdi. Ular olov devning muz qilichi ikki xona o'rtasidagi devorda ekanligini aytdi. U bir

zarb bilan urib, devorni qulatdi va muz qilichni oldi. Muz qilichni olgan ham ediki, olov devning guvillab yonib, u tomonga qarab kelayotganligini ko'rdi.

– To'xta, ey olov dev. Mening qo'limda sening ajaling turibdi. U bilan seni muzlataman. Umring yakun topadi.

Muz qilichni ko'rgan olov dev joyida to'xtabdi. Ayyorlik bilan botirga yalina boshlabdi:

O'tinaman, menga shafqat qil. Muz qilichingni ko'lga tashla, – debdi.

– Aslo. Bugun sening kuning bitadi. Ayt, qiron devning joni qayerda?–so'rabdi g'azab bilan kenja botir.

– Hali sen akamning jonini istaysanmi, mana senga jon, deya olov purkabdi dev.

Botir va olov dev qattiq olishibdi. Dev qanchalik olov purkamasin uning kuchi muz qilich qarshisida o'chib qolaveribdi. Nihoyat, botir olov devning bo'g'ziga muz qilichni uribdi. Dev olov bo'lib bir ulkan alanga olibdi-yu, o'chibdi. Undan bir hovuch sovigan kul qolibdi.

Shundan so'ng muz qilichning o'zi ham eribdi-yu, faqatgina uning dastasi qolibdi. Dastaga yaxshilab qarasa, unda qandaydir so'zlar yozilganligini ko'ribdi. O'qiy boshlaganida esa "Najot aqlu tafakkurdadir!" degan fikr kelib chiqibdi. Beixtiyor botir aqlu tafakkurini ishga solib, dastaga diqqat bilan nazar tashlabdi. Uning o'rtasida kichik bir ilgak bo'lib, uni tortgan ham ediki, ichidan ko'rsatkich barmoqdek keladigan yaltiroq kalit yerga jaranglab tushdi. U kalitni qo'lga olibdi va o'ziga o'zi "Qiron devning joni mana shu kalit ochqichida", – debdi.

Sariq dev va Olov dev qo'lidagi ikki malikani va asira qizlarni hamda ko'zi ko'rmas devni olib, kenja botir akalari oldiga qaytibdi, borganlarida tong yorishib, akalari kenja botirni izlayotganligini ko'ribdilar. Bo'lgan voqeani aytib bergach, ikkinchi malika shunday debdi:

– Devlarning sardori bu Qiron dev. U eng yuksakda turadi. Unga chiqib borishning o'zi qirq kunlik yo'l. Tezroq opamizni va asiralarni undan qutqarmasak, ularning joni xatarda qoladi.

Botirlar o'yg'a tolganlarida, to'ng'ich botir hozir debdi-da,

ulkan qushning patlarini tutatibdi. Bir zumda paydo bo'lgan bahaybat qush ularni qanotlari ustiga olib, qiron devning makoni sari ko'tarilibdi. Qiron devning huzuriga chiqqanlarida uning darvozasini katta ilon-ajdaho qo'niqlab turganligini ko'rdilar. Uch og'ayni botirlar ajdahoni uch yog'idan chalg'itib, unga qarshi jangga tushibdilar. Ajdaho og'zidan sochilgan olovga qalqonlarini tutib, unga chap berib, jang qilibdilar. Nihoyat, to'ng'ich botir urgan qilichdan ajdaho o'zini yo'qota boshlabdi. Keyin esa ikkinchi va uchinchi botirning qilichlari uni jarohatlay boshlabdi. Ajdahoning badanidan oqayotgan qon daryo kabi oqibdi. U kenja botirga jon holatda tashlangan vaqtda o'rtancha botirning zarb bilan urgan qilichi uning boshini uzib yuboribdi.

Shunday qilib, qiron devning makoniga yo'l ochilibdi. Kenja botir akalariga devni qidirishni, o'zi esa kalit tushadigan eshikni izlab topishni aytibdi. Katta va o'rtancha botir xonalarni bir-bir ko'zdan kechirib boraveribdilar va bir vaqt ulkan bir daraxt ustunni ular tomon po'kakdek uchib kelganini ko'ribdilar hamda unga chap beribdilar. Birdan g'or gumburlab, gursillay boshlabdi. Bu qiron devning qadamlari edi. Bir vaqt o'ng tomondagi yo'lakdan qiron devning gavdasi ko'rinibdi. U shu qadar bahaybat ediki, boshida bita uy turardi. Yelkasiga esa saroy qursa bo'lardi. Agar ko'ksidagi yunglari o'rnida keng yaylov bo'lganidami bir mamlakatning chorvasi bir yil o'tlagan bo'lardi. Ikki botir bu dev oldida bamisli xas edi.

Dev ularning tepasiga keldi va g'azab bilan baqirdi. U darg'azab o'kirganida g'orning yarim ustunlari qulab tushdi:

— Hali senlarmi mening oromimni buzib, ukalarimni jonidan ayirgan. Endi senlarning ichingni shilib, teringga qush patini tiqib, boshimga yostiq qilib yotaman. Go'shtingni esa quzg'unlarga beraman.

Botirlar o'zlarini yo'qotmadilar. Qurol-nayzalarini devga qarata to'g'rilab, to'ng'ich botir shiddat bilan gapirdi:

— Sen qilgan barcha ishlaring uchun javob berasan. Sening kuning bitdi. Bizdan rahm-shafqat kutma!

Dev g'azab bilan yana guldirab hayqirib, to'ng'ich botir sari qadam tashlab ham ediki, birdan oh urib joyida to'xtadi va

cho'k tushib, tizzaladi. Zum o'tmay yana bir oh urib, ko'ksini ushladi. Uning ko'zlariga qon to'ldi, og'izlaridan qon oqib tusha boshladi. Uchinchi bora oh urganida g'orning ichkari xonalari qulab tushib, vayronaga aylangandi. Qiron dev botirlarga tikilganicha yerga quladi va bir zum xirillagan ko'yi yotdi-da, joni uzildi. Bu bejizga sodir bo'lmagan edi. Chunki kenja botir izlagan eshigini topgan edi. Kalit eshikka tushgach, u xonaga kiradi. Qarasa, shaffof bir shisha ichida qora rangli tukli qurt turar edi. U qiron devning joni bo'lib, ochko'zligidan qorayib ketgan edi. Botir qo'liga xanjarni oladi-da, qurti ikki bo'lakka bo'ladi, keyin uch bo'lakka, undan keyin to'rt bo'lakka bo'lganidan so'ng qurt kuyib, qorayib, yonib ketadi va kulga aylanadi. Ana shu vaqtda qiron devning ham joni uziladi.

Akalari ukasi kenja botirning donoligi va jasoratiga qoyil qolib, unga minnatdorchilik bildiribdilar. Uchta malikani va asira qizlarni olib, ko'zi ko'rmas dev bilan xayrlashayotganda unga qarata kenja botir shunday debdi:

— Hoy dev, sen mana yaxshilik g'alaba qozonishiga guvoh bo'lding. Nima bo'lganda ham sen menga yordam berding. Faqat ko'zlaringni ojiz etganim uchun meni kechir.

— Qaytanga ko'zimni ko'r qilib, ko'nglim ko'zini ochding. Men aslida yaxshi yo'ldan yurib, yomonlikni tashlashim kerak edi. Endi ko'zlarimning nurini nimaga berilganligini anglayapman. Men shunda ham sendan minnatdorman.

Shu vaqt asira qizlarning ichida bir qiz shifobaxsh giyohlar teruvchi ekan. U yonidagi ko'zachaga solingan suyuqlikni devga beribdi-da, shunga ko'zlaringni chay debdi. Dev ko'zlarini chaygan ekan, ko'zlari yana asli holiga qaytib, yorug' jahonni ko'ribdi.

Dev xursandligidan shodon hayqirib yuboribdi va debdi:

— Meni yolg'iz tashlab ketmanglar. Meni ham olib ketinglar. Toki umrimning oxirigacha sizdek yaxshi insonlarning mehnatini qilay.

Barchalari bahaybat qush qanotiga o'tirib, pastga tushibdilar va o'rmon oralab malika qizlarning yurtlari sari yo'l olibdilar. O'rmonda ketayotganlarida oldilaridan bahaybat bir

arslon chiqibdi, u o'kirganicha odamlar tomon yurib kela boshlabdi.

To'ng'ich va kenja botir qilichlarini qinidan chiqarishayotganda o'rtancha botir ularga:

– Qilichlaringizni qinlariga solinglar, u mening do'stim, – debdi va otdan tushib, arslon oldiga borib, uni bag'riga bosibdi. Arslon esa:

– Xaloskorim, bermalol yo'l bosaver. Toki o'rmondan chiqquningcha senga biror bir hayvon yoki darranda ziyonzahmat yetkazolmaydi. Aksincha, ko'mak lozim bo'lsa, yordam beradi, – debdi.

– Rahmat senga o'rmonlar podshohi, doim omon bo'lgin! – debdi o'rtancha botir va arslon bilan xayrlashibdi.

Shunday qilib, uch og'ayni botirlar mamlakatning uch malika qizi va ularning dugonalarini vahshiy devlar changalidan qutqarib, yurtiga sog'-salomat olib kelibdilar. Podshoh shodlikdan ko'zlariga yosh olar ekan, uch og'ayni botirlarni rosa duo qilibdi va shunday debdi:

– Sizdek o'g'lonlar mening malika qizlarimni ajal domidan omon olib kelibsizmi, ularga faqat sizdek mard, jasur pahlavonlar munosibdir. Sizdek o'g'lonlarni voyaga yetkazgan otangizga rahmat. Agar qarshi bo'lmasangizlar, sizlarni o'zimga kuyov, kuyov emas, balki farzandim qilib olsam.

Pahlavonlar bu gapni kutmaganlari uchun dovdirab qolibdilar va otalarining iznisiz bu ishni amalga oshirish beodoblik ekanligini podshohga eslatibdilar.

Podshoh chopar yuborib, uch o'g'lonning otasi Fozil boboni huzuriga chorlabdi. Fozil bobo kelib mehmon bo'libdi va podshohning taklifiga rozi bo'lib, farzandlarini duo qilibdi. Shundan keyin malikalar yurtida va Fozil bobo o'lkasida qirq kechayu qirq kunduz to'y, bazmi ziyofat bo'lib, uch og'ayni pahlavonlar go'zal va suluv yorlari bilan oila quribdilar.

Siz ham eshitdingizmi? Hozir o'sha pahlavonlarning ham uchtadan nabirasi bo'lib, ular yurtining eng ilmli, dono murabbiylaridan saboq olayotgan emishlar. Kim bilsin? Ularni ham kelgusida qanday qahramonliklar, sarguzashtlar kutyapti ekan?!

## KASB-HUNAR FOYDASI

Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan. Uzoq emas, yaqin zamonlarda Bek ismli yigit bo'lgan ekan. Uning mehribon ota-onasi bo'lib, otasi u tug'ilmasidan oldin Yaratganining irodasi ila olamdan o'tgan ekan. Biroq u hali mening pahlavondek o'g'lim bo'ladi, o'g'lim yigitlarning faxri, begi bo'ladi deb orzu qilarkan. Har bir tilakka farishtalar omin deganidek, kunu oylar o'tib, norg'ul o'g'lon dunyoga kelibdi. Onasi quvonchdan ko'zlariga yosh olib, farzandiga otasi orzu qilganidek Bek deya ism qo'yibdi.

Yillar o'tgani sayin Bek kamol topib boribdi. Onasi uni ulg'aytirish, oq yuvib, oq tarash uchun tinmay halol mehnat qilibdi. Halol luqma bilan boqibdi. Ko'plab qiyinchilik va mashaqqatlarni boshidan kechiribdi. Biroq tinimsiz mehnat qilib, o'z sog'ligiga qarashga imkoni bo'lmagan onaning tobora sog'ligi yomonlasha boribdi.

U bir kun tabibga borganida, tabib unga:

— Siz juda qattiq shamollabsiz. O'z sog'ligingizga jiddiy e'tibor berishingiz, yotib davolanishingiz kerak, — debdi.

— Hurmatli tabib, men oilada yolg'iz o'g'lim bilan yashayman. Agar men ishlamasam, o'g'limni kim boqadi. Shuning uchun menga zarur dorilaringizdan beravering. Ichib yuraman, — debdi Bekning onasi.

Tabib esa uning betobligi haqida yana bir bor jiddiy ogohlantirib, dorilarni beribdi. Bekning onasi ushbu dorilarni ichib, yana ishlab yuraveribdi. Biroq yotib davolanmaganligi, kasalni oyoqda o'tkazganligi oxir-oqibat uni yiqtib, to'shakka mixlab qo'yibdi.

Endi ro'zg'or tashvishi Bekning zimmasiga tushibdi. U qishloqning chorvasini boqar, poda ortidan yurib, yantoq chopardi. Ularni cho'ponlarga berib, evaziga echki bolasini olar edi. Shu tariqa Bek ro'zg'or kamini qilar va onasini davolatish uchun mablag' yig'ar edi. Nihoyat, u onasini davolatish uchun tabibga ko'rsatadi. Tabib esa:

— Bolam, bundan bir necha yillar oldin onang qattiq betob bo'lib yonimga kelgan edi. Unga sog'ligi haqida jiddiy qayg'urishni, yotib davolanish kerakligini aytgan edim. Bi-



roq onang men yotsam, bolamning holi nima kechadi deb, oxirgi kuch-quvvati qolguncha, toki oyoqda tik turguncha seni boqib, oq yuvib-oq tarash uchun oromidan, hatto sog'ligidan ham kechdi. Hozir onangning ahvoli tobora og'irlashmoqda. Chunki kasali o'tib ketgan.

– Tabib buva, nahotki biron chorasi yo'q. Iltimos yordam bering. Onam o'lib qolsa, men nima qilaman, – dedi Bek ko'zlariga yig'ilib, dimog'ini achitayotgan achchiq ko'z yoshlarini yutarkan.

– O'g'lim, buyog'i Yaratganning irodasi. Mayli men qo'limdan kelgancha senga yordam qilaman. Zarur dorilarni beraman. Faqat sen ularni o'z vaqtida onangga berib, uni parvarish qil. Onangni sen uchun qilgan yaxshiliklarini qaytarib, duosini ol. Qodir Egamdan uning dardlariga shifoyi komil tila.

Bek onasiga tabibning bu gaplarini aytmadi, aksincha onasining ko'nglini ko'tarish uchun:

– Onajon, tabib eng yaxshi dorilaridan berdi. Shularni vaqtida ichib, aytganlarini qilsangiz, tez orada tuzalib ketar ekansiz, – dedi Bek.

Qarshisida jondek jigarbandining uning uchun yashayotganligi, dardiga darmon bo'lish uchun hamma ishga tayyor ekanligini ko'rgan onasi garchi dardi bedavo bo'lsa-da, bir zum ko'ngli ko'tarilib, beixtiyor ko'zlarida yoshlar halqalandi va:

– Ilohim aytganing kelsin, bolajonim, – deya o'g'lini bag'riga bosdi.

Kunlar o'tar, Bek ulg'ayib borar, kasal onasi esa kundankun bahorni o'tkazib, xazonrezgiga taslim bo'lgan guldek so'lib borardi. Umrining so'nggi onlarini yashayotgan onasi o'g'lini qoshiga chaqirib, unga shunday nasihat qildi:

– Bek bolam. Mening kunim bitayotganga o'xshaydi. Shuning uchun senga hozir aytadigan gaplarimni hayoting davomida o'z shioring, vijdoniy qoidang deb bilgin. Doim to'g'ri bo'l. Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'l. Birovning narsasini so'ramasdan olma. Hamma vaqt kitobni do'st tut. Ko'proq ilm va kasb-hunar o'rgan. Zero, hunarli xor bo'lmas, deganlar. Yigit kishi uchun qirq hunar ozligini doim yodingda tut. Kunlar kelib, o'zingga munosib yor topib, oila qurajak-

san. U bilan chiroyli hayot qurib, shirin farzandlarni tarbiyalaysan. Ularni ham men aytganimdek qoidalar ila voyaga yetkazajaksan, inshoolloh! Agar men olamdan o'tsam, manna bularni qishloq oqsoqoliga berasan, — deb ro'molda tugilgan narsani o'g'liga tutqazdi.

Unda onasining o'z o'limi uchun yig'ib qo'ygan mablag'i bo'lib, u bedavo dard bir kun joniga qasd qilishini yaxshi bilar edi.

— Xo'p bo'ladi, onajon. Barcha aytganlaringizga amal qilib, ezigulik yo'lidan borib, insonlarga nafi tegadigan inson bo'laman. Faqat siz unaqa gaplarni gapirmang. Hali siz uzoq yashaysiz. Nasib etsa, mening to'ylarimni ko'rasiz. Farzandlarimning suyuqli buvisi bo'lib, ularni tarbiya qilasiz.

Onasining ko'zlaridan yosh sizib, yuzidan dumalab, yostig'iga tushibdi. U o'g'liga yoshli to'la ko'zlari bilan bir zum tabassum bilan boqibdi va jim bo'lib qolibdi. Bu uning omonat jonini xasta vujudini tark etganidan darak edi.

Bek: onajon! — deya ho'ngrab yig'lab yubordi va o'zini onasi bag'riga otdi.

Qishloq ahli oqsoqol boshchiligida Bekning onasini dafn etdi. Otasi va onasining haqiga qur'on tilovat qilib, Bekka bardam bo'lishni, ota-onasiga munosib farzand bo'lishni aytishdi. Odamlar tarqagach, oqsoqol Bekni yoniga oldi va dedi:

— Bolam, Yaratgan egam senga o'z sinovlarini ketma-ket berdi. Ota-onasidan ayrilish og'ir iztirob, lekin bu savdo har kimning boshida bor. Ota-onang rahmatlik judayam yaxshi insonlar edi. Mehnatdan e'tibor topgan odamlar edi. Netaylik, umrlari qisqa ekan. Endi sen bundan keyin sabrli va irodali bo'lishing kerak. Onang vafotidan oldin seni menga topshirishini, sen haqingda qayg'urishimni iltimos qilib edi. Biz qishloq ahli kengashib, seni hunar maktabiga berishga qaror ildik. Sen shu yerda ko'p hunarlarni mukammal o'rganishing va bu bilan insonlarga nafi tegadigan hunarmandga aylanishing kerak.

— Mayli otaxon, men roziman. Chunki onam ham menga kasb-hunar o'rganib, insonlarga foydasi tegadigan odam bo'lgin deganlar. Men, albatta, onamning aytganlaridek bo'laman, — dedi Bek o'pkasi to'lib yig'lar va ko'zlarining yoshlarini artarkan.

Bundan ko'ngli bo'shab ketgan oqsoqol ham yuragi ezilib, bolakayni bag'riga bosdi va uni yupatdi.

Shunday qilib, Bek hunar maktabida astoydil tahsil olib, belgilangan hunarlarni ustozlardan mukammal o'rganishga qattiq bel bog'ladi. Onasining aytgan gaplari uni bir lahza bo'lsa-da bekor turishga, vaqtini behuda sarflashga izn bermasdi. Maktabdosh do'stlari mehnatga bo'yin bermay, o'yin-kulgi uchun juftakni rostlasa, u bo'sh vaqtida qo'lga yog'och bo'laklarini olib, ulardan nimalarnidir yasashga harakat qilar edi.

Yillar o'tib, u hunar maktabida duradgorlikni o'rganib, maktabni namunali yakunlabdi. Bo'sh vaqtlarida yana bir ustaga shogird tushib, telpak tikishni o'rganib olibdi.

Oqsoqol undan xursand bo'libdi:

— Bolam, mana sen aytganimizni qilib, kerakli hunarni egallading, — debdi.

— Buning uchun sizga va qishloq ahliga katta rahmat. Lekin onajonim menga yigit kishiga qir hunar ham oz, — degandilar. Shuning uchun menga ruxsat bersangiz, katta shaharga borib, yangi kasb-hunarlarni o'rganib qaytsam.

Oqsoqol Bekning g'ayratidan yana ham hayratga tushib, unga oq yo'l tilabdi va duo qilibdi.

Bek shu tariqa oqsoqol va qishloq ahli bilan xayrlashib, shaharga yo'l olibdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, azim bir shahar ro'parasidan chiqibdi. Bu shaharning odamlari chumolidek ko'p, hayot buloqdek qaynaydi. Bozoriga kirsang, kimdir qovunini, kimdir zarbof to'nini, yana kimdir qaynoqqina pishirgan somsasini maqtaydi. Chor atrofga angrayib turgan Bekni bu shaharga begonaga ekanligini sezgan usta somsapaz:

— Hoy yigit, — deb uni chaqiribdi.

Bek ovoz kelgan tomonga qarabdi va somsapazga qo'lini ko'ksiga qo'yib salom beribdi.

Muomalasidan tarbiyali odamga o'xshaydi; deya somsapaz xayolidan o'tkazibdi.

— Bu yerlarda begonaga o'xshaysan, qayerlardan kelib qolding, — deya gap boshlabdi.

— Men Buxoro tomonlardanman.

— Azizlar yurtidan ekansan. Boradigan joying bormi?

– Hozircha aniq emas.

– Kel bo‘lmasa, menga tandiming oloviga qarashib yubor, halizamon shaharning eng obro‘li savdogarlari somsaxo‘rlikka kelishadi. Ulgurish kerak.

Bek o‘ylanib o‘tirmay, kiyimlarini yechibdi-da, yeng shimarib ishga tushibdi. Mehnatkashgina bola ekan, deya somsapaz yana bir xayolidan o‘tkazib qo‘yibdi.

Bu somsapaz shaharda tanilgan, o‘zining naqadar-lazzatli somsasi bilan dong taratgan edi. U pishirgan somsalarni, bir-biridan shirin taomlarni hatto saroy mulozimlari ham sevib tanovvul qilar edi. Somsapaz aytganidek, ma‘lum vaqt o‘tgach, shaharning obro‘li savdogarlari yig‘ilishib, somsaxo‘rlik qila boshlashibdi. Ular somsalarni va somsapazni maqtab, rohat bilan tamaddi qilishardi. Savdogarlar boshlig‘ida yangi telpak bo‘lib, davrada shu telpakning ham ta‘rifi boshlanib, yigitning qulog‘iga ularning suhbatini chalinib qoldi. Telpakni ko‘rganda Bek baribir ustozim tikkan telpakka o‘xshamabdi, deb qo‘ygan edi. Hozir esa uni ko‘kka ko‘tarib maqtashmoqda. Savdogarlar ketgach, Bek bozorga borib, bir telpak uchun ketadigan zarur narsalardan olib kelibdi-da, somsapazlik ishlaridan bo‘sh vaqtida somsapazga ko‘rsatmasdan tika boshlabdi. Bitganida esa telpak shunaqangi tovlanibdiki, har qanday odamni o‘ziga maftun qilib, beixtiyor boshiga kiygisi kelarkan. Chunki Bek unga yurak qo‘rini berib, mehr bilan tikkan edi. Zero, mehr berib qilingan har bir ish xosiyatli bo‘ladi. Telpakni olib somsapazga debdi:

– Amaki, siz tengsiz pazandasiz. Iltimos, meni shogirdlikka oling, men ham hunaringizni o‘rganay. Toki mening ustozim bo‘ling va sizga bo‘lgan mehrim belgisi sifatida ushbu telpakni hadya qilaman.

Somsapaz telpakni ko‘ribdi-yu hayratda qolibdi. Chunki har bir hunarning usta egasi iqtidorda o‘zi kabi yetuk hunarmandni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgisi keladi va bunga qiziqadi. U qiziqib so‘rabdi:

– Buni kim tikkan?

– Buni mening ustozim Shodi telpakchi tikkan, – debdi Bek men tikkanman deya maqtanishni istamay. Somsapaz o‘rmondagi ohuni tutib olgan baxtli ovchiday uzoq vaqt telpakka tikilib o‘tirdi va nimalamidir xayol qildi.

Oradan ikki kun o'tib, u uyiga savdogarlar boshlig'i bilan kirib keldi. Chunki bu telpakka butun savdogarlar, hatto saroy mulozimlari ham shaydo bo'lgan edi.

— Bolakay, bizga shu telpakchining manzilini ayt. Borib undan ko'proq shunday chiroyli telpaklar olib kelaylik va shahrimizda savdo qilaylik. Bek esa bajonidil debdi-da, ularga ustozining manzilini beribdi.

Shunday bo'libdi-yu Shodi telpakchining uyiga olis shaharlardan savdogarlar kela boshlabdi. Kelganlar unga manzilingizni somsapazning shogirdidan oldik deb aytaverishibdi. Shodi telpakchi shogirdi Bekning yaxshi telpakchi ekanligini va uni olis shaharga ketganligini bilardi, biroq somsapazning shogirdi deysishgandan so'ng u yana bu odam kim ekan deb o'ylanib qolardi.

Oradan yillar o'tibdi. Bu vaqt oralig'ida Bek ustozini kabi mohir somsapaz bo'lish bilan birga, barcha turdagi sarxil taomlarni qiyomiga etkazib pishiradigan oshpaz bo'lib yetishibdi. Uni hatto ustozini bilan birgalikda saroyda bo'lib o'tadigan bazmlarga somsa va yana bir qancha taomlarni tayyorlash uchun chaqiradigan bo'lishibdi.

Shogirdining kamolidan quvongan ustozning ham Bekka mehri tushib qolibdi va uni o'ziga kuyov qilib olmoqchi bo'libdi. Bir kuni uni dala hovlisiga chaqiribdi va qiziga shirin taom tayyorlashni buyuribdi. Qizi aytganidek qilib, taom tayyorlabdi va dasturxonaga tortibdi. Uning oydek jamoli nuridan yuragi yorishgan Bekning ko'nglida allanechuk hislar g'alayon qila boshlabdi. Taomdan tuz totgan Bek uni boshqa odam pishirganligini payqabdi. Chunki u o'zining ham, ustozining ham pishirgan taomidan o'n kara totli va mazali edi.

Ustoz, aybga yo'yimaysiz. Bu taomni kim tayyorladi?

— Ha, aytganicha. Buni mening qizim Muslima tayyorlagan, — debdi somsapaz. U mendan ham o'tadigan mohir pazanda, — deya qo'shib qo'yibdi.

Muslima... Bu ism Bekning yuragiga bahor epkinlarini olib kirgandek edi go'yo. Bek unda o'zining baxtu iqbolini, onasi orzu qilgan saodatni ko'rdi va payt poylab, ustoziga dilidagini to'kib soldi. Chunki ustozini unga otadek yaqin, Bek esa o'g'lidek

qadrdon bo'lib qolgandi, qolaversa, ustoz Bekning yolg'izligini, yaqin kishisi yo'qligini yaxshi bilar edi.

Ustoz Bekning fikriga rozi bo'lib, uni o'ziga kuyov, kuyov emas, farzand qilib olishni diliga tugdi. Muslimaga kelsak, elda nom chiqargan Bek kabi hunarmand, tarbiyasi, qalbi pok, o'zi esa qirq yigitga bas kela oladigan pahlavon yigit ta'rifini eshitgan va uni ko'rgan kundan buyon biroz xayoli parishonroq bo'lib qolgan edi.

Bek ustoz duosini olib qishlog'iga qaytdi. Oqsoqol va qishloq ahli bilan ko'rishdi. Telpakchi ustozinikiga borib, darvozasini taqillatdi.

Darvozadan telpakchining ovozi keldi:

– Kim u?

– Assalomu alaykum, men olis shahardan, somsapazning shogirdiman, – deya Bek quvlik qildi.

Telpakchi angrayib qoldi. Tavba ovoz naqadar tanish. Lekin somsapazning shogirdini g'oyibona tanisam ham, o'zini ko'rmaganman. U kim bo'ldiykin?!

Shunday xayol bilan telpakchi darvozani ochdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, qarshisida bundan necha yillar oldin telpakchilikni o'rgangan shogirdi Bek turardi. Ular quchoqlashib ko'rishibdilar. Telpakchi uning yelkasiga urar ekan:

– O'ktam yigit bo'lib ulg'ayib ketibsan. Hali sen ekansanda uyimga savdogarlar karvonini yo'llagan. Shundan so'ng ishlarim yurishib ketdi. To'ylar qildim, mana bunday chiroyli imoratlar soldim. Sendan roziman ukam, – deya telpakchi rozi dilini boshlab ketdi. Bek esa:

– E qo'ysangiz-chi, maqtayvermang hadeb, o'zingiz qalaysiz?- derdi gapni boshqa yoqqa burib.

Ular uzoq vaqt choy ustida suhbatlashib o'tirdilar.

Ikki kundan so'ng Bek oqsoqol boshchiligida telpakchi ustoz va yana bir-ikki qishloq vakillarini olis shahardagi ustoz - somsapaznikiga sovchilikka yuboribdi.

Duoyi fotihalar qilingach, Bek o'zi orzu qilgan suluv Muslimaxonga uylanib, elu yurtga to'yu tomoshalar qilibdi. Ota-onasidan qolgan hovli joyda qishloq ahli uchun ovqat-

landigan joy barpo etib, elini o'zining shirin taomlari bilan siylaydigan bo'libdi. Telpak-chi deysizmi?! Telpakni hozir Bek va Muslimaxonlarning o'g'li Shodi telpakchining shogirdi Qobilboy tikyapti ekan. Aytishlaricha, Qobilboyning telpaklarini hozirda olis Chin mamlakatidan ham kelib olib ketishyaptikan.

Alqissa shuki, kasb-hunar insonni ulug'laydi. Kasb hunar baxt-saodat, farovonlik kaliti bo'lib, u inson orzu-maqsdalarni ro'yobga chiqaruvchi mo'jizadir.

---

---

## MUNDARIJA

Abdurahmon polvon .....	3
Podshoh, kiyik bolasi va pazanda qiz .....	13
Hasadgo'y tulki qismati .....	19
Dangasa quyoning tuzalishi .....	24
Uch og'ayni .....	29
Kasb-hunar foydasi .....	41

